**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

*Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti*

*“5110900-Pedagogika- psixologiya” ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi*

*Zokirov Muhammadalining*

*bakalavr darajasini olish uchun yozilgan*

*“Ta’lim jarayonida o’quvchi faoliyatini boshqarishning psixologik muammolari”*

*mavzusidagi*

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

***Ilmiy rahbar:*** ***katta o’qituvchi G.Tojiboyeva***

**Andijon- 2016 yil**

# MUNDARIJA:

**Kirish**.........................................................................................................3
**I.BOB. O‘QUVCHILAR BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI** ......................................................................................5
1.1. O‘quvchilarning bilish faolligi – ijtimoiy tajribani o’zlashtirishning psixologik asosi sifatida…...………………………………………….......5
1.2. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilish faolligini boshqarishning psixologik xususiyatlari………………………………..............................................10
1.3. O‘quv-bilush faoliyatini psixologik boshqarish nazariyalari.......................18
**II. BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI** ……….........................................29
2.1. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida bilish faollligini psixologik xususiyatlari....………………………………………………………...29
2.2. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida o‘quv-biluv faoliyati boshqarish samaradorligini oshirish omillari.......................................................................39
2.3. O’z-o’zini boshqarish ko’nikmalarini kichik maktab yoshidagi o’quvchilarida shakllantirishning psixologik xususiyatlari...........................................................................................48
**III BOB. TA’LIM JARAYONIDA O’QUVCHILARNI MUSTAQIL,IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIK OMILLARI**……………………..49
3.1. O’quvchilarning bilish faoliyatini faol,rivojlantirish zamonaviy ta’limning pedagogik psixologik omili sifatida……………………………………………………………………50
3. 2.Olingan natijalarning metodik taxlili..................................................60
Xulosa va tavsiyalar.........................................................................75
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati..............................................................79
Ilova ................................................... .....................................................80

# KIRISH

O‘zbekistonda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tadbiq qilishning uchinchi bosqichi sifat bosqichi deb e’lon qilingan. O‘quvchilar bilish faolligini oshirish ta’lim jarayonining sifatini yaxshilashni anglatadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadlaridan biri ham ana shu masaladir. Mustaqillikning o‘tgan yillariga bir nazar solsak, Respublikamiz xalq ta’limi sohasida juda katta ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu sohada birgina Andijon viloyati Xalq ta’limi xodimlarining amalga oshirgan ishlari ham tahsinga sazovordir. Bu esa maktablarda ta’lim-tarbiyaning sifati oshganligidan dalolat beradi. Mana bir necha yildirki, maktab o‘quvchilari Respublikamizda qabul qilingan Davlat ta’lim standartlari bo‘yicha ta’lim olmoqdalar. Bu me`yoriy hujjatlarni hayotga tadbiq etish har bir o‘quvchi va o‘qituvchidan ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni talab etadi.

**Mavzuning dolzarbligi:** O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishni ta’minlaydi. Bu jarayon, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda yanada muhim ahamiyatga ega. Biz malakaviy bitiruv ishi uchun tanlagan mavzuning dolzarbligi ham ana shu masalalar bilan xarakterlanadi.

***Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:*** Ta’lim jarayonida o’quvchi faoliyatini boshqarish muammolarini o’rganish.

***Bitiruv malakaviy ishining predmeti:*** Ta’lim jarayonida o`quvchi faoliyatini boshqarishning mazmuni, shakllari, usul va metodlari

***Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:***

--------- O‘quvchilar bilish faolligini oshirishning nazariy asoslarini tahlil qilish.

--------- Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilish faolligini boshqarishning psixologik xususiyatlarini o’rganish.

-------- O‘quv-biluv faoliyatini boshqarish nazariyalarini tahlil qilish.

------- Boshlang’ich sinf o’quvchilarida bilish faollligini oshirishni boshqarish yo‘llari.

-------- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv-biluv faoliyati boshqarish samaradorligini oshirish omillarining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish..

***Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-tadqiqot ob'yekti*** bo'lib umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish jarayoni hisoblanadi.

***Bitiruv malakaviy ishining metodlari:*** Nazariy tahlil kuzatish, suhbat, pedagogik eksperement

***Bitiruv malakaviy ishining metodolik asoslari:*** O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O`zbekiston Respublikasi "Ta'lim to`g`risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek mavzuga oid ilmiy pedagogik metodik manbalar, o`quv metodik majmualar

***Bitiruv malakaviy ishining yangiligi:*** O'quvchilar bilish faolligini oshirish doimiy dolzarb muammolardan bo'lsada, hozirgi davr talabidan kelib chiqib o'quvchilar bilish faolligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va uning natijalarini tahlil qilish ta'limda muhim yangilik hisoblanadi. Biz bitiruv ishi tadqiqoti tajribalarida erishgan muvaffaqiyatlar va yangiliklarni viloyatimiz maktablarida ommaviylashtirishni ko'zda tutamiz.

***Bitiruv malakaviy ishining ilmiy amaliy ahamiyati:*** Tadqiqotni olib borish natijasida ta'lim jarayonida o`quvchini boshqarishga yo`naltirilgan pedagogik g`oyalar, tajribalar, ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan boyitildi. Bu metodikasda Boshlang`ich ta'lim fakulteti talabalari va o`qituvchilar foydalanishlari mumkin

**Bitiruv malakaviy ish:** kirish, ikki bob, olti paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan hamda ilovalardan iborat

# I.BOB. O‘QUVCHILAR BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

## 1.1. O‘quvchilarning bilish faolligi – ijtimoiy tajribani o’zlashtirishning psixologik asosi sifatida

Insoniyat azal-azaldan o’zini qurshab turgan olam haqida tobora ko’proq narsalarni bilishga intilib kelgan. Bu esa yillar o’tib borishi bilan yangidan-yangi, murakkab ixtiro va kashfiyatlarni yaratilishiga olib kelmoqda. Bugungi kungacha insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ixtirolar ularning olamdagi narsa va hodisalarni bilmaslikdan bilishga qarab, kam bilishdan tobora ko’proq bilishga tomon bo’lgan ehtiyojlari, qiziqishlari, hamisha intilib yashashga undagan bu jarayon – bilish jarayonining nima ekanligini to’la anglab olish juda muhimdir.

Bilish nima? Bilish – moddiy olamning inson ongida in’ikos etish jarayonidir. ya’ni:

- ob’ektiv olam bizning sezgi va tasavvurlarimizga bog’liq bo’lmagan holda undan tashqarida mavjud. Ob’ektiv olam inson sezgi va tasavvurlarning manbai;
- inson dunyo va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishi mumkin.

Inson sezgi, tasavvur va tushunchalarida o’ziga bog’liq bo’lmagan tashqi olam mazmunini in’ikos ettiradi.[1]

Bilish tafakkurning bilinayotgan predmetga yaqinlashuvi, fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to’la va mukammal bo’lmagan bilimdan, to’la va mukammal bilimga qarab harakat qilishdan iborat cheksiz jarayonni tashkil etadi. Bilish eskirib qolgan nazariyani yangi nazariyalar bilan almashtirib eski nazariyalarni yanada aniqlab, olg’a qarab boradi hamda voqelikning tobora yangidan-yangi tomonlarini ochadi.

Bilish ikki bosqichdan: jonli mushohada (sezish) va mavhum tafakkur (fikrlar)dan iboratdir.

Bilishning boshlang’ich bosqichi jonli mushohada, ya’ni ob’ektiv dunyoning buyumlarini bevosita sezgi a’zolari yordamida aks ettirishdir.

[1] Туленов Ж. Фалсафа. Т., 1994, 229-бет.

Ibn Sinoning fikricha, “sezish – bu shunday ta’sirki, u tashqi narsalarning o’zi bo’lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. his moddiy obrazning oynasi bo’lib, moddiy shakllarning bo’yi, eni bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni inson moddiy asossiz in’ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi”.[2]

Faylasuflarning ta’kidlashicha, jonli mushohadaning bilishdagi roli muhimdir, uni yordamida dunyo haqida aniq bilimlar kelib chiqadi. Lekin bilishning bu bosqichi ma’lum darajada cheklangan. Bu bosqichda narsa va hodisalarning ba’zi bir tomonlari va xususiyatlarinigina bilib olish mumkin.

Mavhum tafakkur hissiy bilishdan sifat jihatdan farq qiladi. U bevosita aniq bitta predmetdan uzoqlashib, bir nechtasiga xos bo’lgan umumiylikning mohiyatini ochib beradi. Bundan tashqari sezgi obrazlari tashqi olamning in’ikosidir, ya’ni tashqi olam sezgimizga qanday ta’sir qilsa, shundayligicha aks etiladi. Tafakkur obrazlarida esa boshqacharoq, unda tashqi olamning ichki mohiyati, aloqa va bog’lanishlari hamda rivojlanish qonun va qonuniyatlari aks etadi. Falsafaga doir kitoblarda tafakkur obrazlarining uchta asosiy xususiyati ajratib ko’rsatiladi:

1. Tafakkur obrazlari mavhumlik xususiyatga ega, ya’ni tafakkur obrazlari hosil bo’lishi uchun ifoda qilinayotgan tashqi olam bevosita ko’z oldimizda bo’lishi shart emas.

2. Tafakkur obrazlari umumlashgan xususiyatga ega. Umumlashtirish esa bizga ta’sir etayotgan narsa yoki hodisaning barcha sifat va xususiyatlaridagi muhim bo’lmagan ikkinchi darajalilarni chetga surib, asosiy tomonlarini taqqoslash va fikran bir-biri bilan bog’lashdir.

3. Tafakkur obrazlari til bilan bog’liqdir. Bilish jarayonida paydo bo’layotgan har bir tushuncha til orqali ro’yobga chiqadigan ong omilidir.

Bilishning falsafiy talqiniga asoslanib, uning pedagogik-psixologik talqiniga e’tibor qaratamiz.

Bilish-psixologik aks etish jarayoni, bilimlar hosil bo’lishi va o’zlashtirilishning ta’minlovchisi[3]. Bilish psixik bilish jarayonlari orqali amalga

---

[2] Туленов Ж. Фалсафа. 231 – бет.

[3] Қаранг: Современный словарь по педагогике Мн., 2001, с. 591.

oshadi: sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol, nutq. Bilishning maqsadi esa xolis haqiqatga erishish bo'la oladi. Bilishning vazifasi – umumiy tarzda jamiyat rivojining muhim jihatlarini ochib berishdan iborat. Bu esa amaliy faoliyat natijasida ya'ni bilishning ikkinchi darajasini keltirib chiqaradi. Hissiy va mantiqiy bilishni bir qatorda qo'yish mumkin holda, ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilish mumkin emas. CHunki ular bir-biriga o'tadi, shu bilan birga, bir-birini to'ldirib turadi. Bilish jarayoni oldindan bilish, xayol qilish, tahmin qilish kabi fikrlash faoliyati bilan qo'shilib amaliy faoliyatda oldin qo'lga kiritilgan yutuqlarga, bilimlarga tayanib narsa-xodisalarninng keyingi rivojini aniqlash imkonini beradi.

Endi esa, faoliyat tushunchasiga aniqlik kiritishimiz zarur. CHunki biz yuqorida bilish nima ekanligini ham falsafiy, ham psixologik ta'rifini berishga harakat qildik.

Agar hayvonlorning hatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan chambarchas bog'lansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirib boriladi. Hatti-harakatning bu turi shu qadar o'ziga xoslikka egaki, psixologiyada uni atash uchun maxsus atama – faoliyat atamasi qo'llaniladi. Faoliyat ehtiyoj, motiv (sabab)lar asosida kelib chiqib ma'lum bir maqsadga yo'nalgan bo'ladi. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda faoliyat tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: faoliyat – kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir[4].

Faoliyat – voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaklidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish kishilarga ta'sir ko'rsatadi. Bilish ham ana shunday faoliyat turlaridan biri bo'lib, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning asosi, mahsulidir. Insonning aql kuchi haqida, uning murakkabligi to'g'risida ko'plab afsona va kitoblar yozilgan. Kundan-kunga insonning butun qudrati yangidan-yangi dalillarga olib kelmoqda. Inson o'z hayotining birinchi davrida, ya'ni bolaligida esa – dunyodagi eng yordamga muhtoj jonzotdir.

[4] Умумий психология. Т., "Ўқитувчи", 1992, 104 – бет.

Agar bir inson bolasini hayot yo'lini tahlil qiladigan bo'lsak, o'ziga xos tarixiy davrlar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Buni insoniyat tarixini davrlashtirish bilan taqqoslaydigan bo'lsak, odamzot tarixining boshi – ibtidoiy jamoa tuzumi bilan uning bolalik davri o'rtasida o'xshashlikni yaqqol ko'ramiz. Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixining qariyb to'qson foizini (90%) qamrab olsa, odamzotning bolalik davri uning hayotining 25% (yigirma besh foizini) tashkil etar ekan. Mashhur pedagog-psixolog olim N.F.Talizina bu jihatdan hayratlanib, nega insonning bolaligi shunday uzoq davom etishi xaqidagi savolni ko'ndalang qo'yadi. Haqiqattan ham, hech o'ylab ko'rganmisiz, nega insonning bolaligi shunday uzoq davom etadi. Bu savolga har kim turlicha javob beradi. Kimdir tabiat qonuni deya izohlasa, yana kimdir YAratganning karomati bilan bog'laydi. Biz esa bu borada chuqur tadqiqot olib borgan olimlarning tadqiqotlariga asoslanib mulohaza yuritamiz. Olimlar bu savolni echimini odamzot hayotini hayvonot olami bilan taqqoslab topishga harakat qilganlar. Hammaga yaxshi ma'lum, qarg'a 200-300 yil yashaydi, bolaligi esa hammasi bo'lib bir necha oynigina o'z ichiga oladi. Boshqa qushlar va hayvonlar ham odatda hammasi bo'lib bir necha oydan so'ng bolaligini o'zining hayvonot dunyosida mustaqil hayot tarziga almashtiradi. Inson bolaligi esa yillar, o'n-o'n bir yoshlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ko'pincha jamiyatga foyda keltiradigan tarzda tayyorlash faoliyati inson hayotining chorak qismini egallaydi. Tadqiqotlardan ma'lumki, jonivorlarda ajdodlari tomonidan egallangan tajriba, avlodlarga nerv mexanizmlari yordamida tayyor holda ko'chib o'tadi, ya'ni meros qoldiriladi. Jonivorlar tayyor xulq-atvor normalari bilan tug'iladi, unga hayot davomida orttirilgan tajriba bu normalarni aniq sharoitlardagina qo'llay olish uchun kerak bo'ladi. Inson esa tajribani meros sifatida qabul qilmaydi, uning taraqqiyoti biologik jihatga qaram bo'lib qolmaydi, aksincha ijtimoiy hayot tarzidagina shakllanadi, ularsiz inson mavjud bo'la olmaydi. Bu xaqida hayvonlar orasida o'sgan bolalar haqidagi voqealar yaqqol dalolat beradi. Ulardan biri haqida fransuz faylasufi E.Kondil'yak ham o'zining "Sezgilar haqida traktat"larida yozib qoldirgan. U litvalik ayiqlar orasida yashagan bola haqida yozadi. Bola gapira

olmaydi, hech qanday aql-zakovatga ega emas, g'alati tovushlar chiqaradi, umuman, insonga o'xshamaydi [5].

Bu haqida ko'r-saqov tug'ilganlar ustida olib borilgan kuzatishlar ham gapirishga imkon beradi. Agar bunday bolalar bilan maxsus ish olib borilmasa, u holda o'zi o'tirishni o'rgana olmaydi, yura olmaydi hamda gapirish, fikrlash, inson faoliyatining murakkab shakllarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'la olmaydi. Qachonki shunday ko'rish, eshitish qobiliyatisiz tug'ilganlar maktabga borganda, u holda ular bilan ish oddiy harakatlar – o'tirish, turish, yurishni o'rgatishdan boshlanadi.

N.F.Talizinaning fikricha, bularning hammasi va shularga o'xshash faktlar inson dunyoga hech qanday xulq-atvor shakllari bilan dunyoga kelmasligidan dalolat beradi[6]. Uning taraqqiyoti ichkaridan tayyor ochiq emas yo'ldan boradi, insoniy qobiliyatlar esa garovga olinib, u tajriba yo'li orqali avlodlarga ajdodlar tomonidan to'plab boriladi (A.N.Leont'ev, N.F.Talizina). Inson ana shu sababli o'z ajdodlarini kifti(elka)sida ko'tarib yuradi, ularning ko'p asrlik tajribalaridan foydalanadi. Inson tayyor mantiqiy fikrlash bilan tug'ilmaydi, tayyor dunyo haqidagi bilimlarga ham ega bo'lmaydi. Lekin u boshqatdan mantiqiy fikrlash qonuniyatlarini, ma'lum jamiyat-tabiat qonunlarini kashf etmaydi. Bularning hammasini u hayot jarayonida o'zlashtiradi. Inson tayyor holda tarixiy bilimlarga yoki musiqa chala olish qobiliyatiga ega bo'lib tug'ilmaydi: u ularni o'tmish dunyosiga, musiqa olamiga faol kirib borish orqali egallashi mumkin.

Agar bola keyinchalik tarix fanini o'rganishda o'zining shaxsiy hissasini qo'shsa, bilingki, bu sababsiz yuzaga kelmagan. Bu dastlab bolada ota-onaning yordami bilan amaliy faoliyat jarayonida o'zlashtirilsa, so'ngra maxsus kishilar – o'qituvchilar ko'magida rivojlanib boradi. Maktabdagi ta'lim yillari – bu insoniyat tajribasining ilmiy, ahloqiy, estetik va boshqa shakllarini o'zlashtirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan yosh davridir. Bolaning kelajagi ham ana shu ijtimoiy tajribani o'zlashtirganiga, qanday o'zlashtirganiga bog'liq bo'ladi.

---

[5] Современный словарь по педагогике, с. 172

[6] Современный словарь по педагогике, с. 172

## 1.2. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilish faolligini boshqarishning psixologik xususiyatlar

Hatto eng qobiliyatli insonning boshi ham yaxshi ta'limsiz hech narsa emas, degan gapda jon bor. Biroq insonga shunday ta'limni ta'minlash uchun uni yaxshi o'qitish, bu kabi o'ta muhim pedagogik jarayonni to'g'ri amalga oshirish kerak.

O'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanishi to'g'risida to'xtalar ekan, amerikalik psixolog Dj.Bruner shunday yozadi: "Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun yamas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misoli o'rganish, bilim olishda ishtirok etishga o'rgatish uchun o'qitamiz. Bilish – bu jarayon, mahsul emas"[7].

Ma'lumki, bilish faoliyatining sub'ekti o'quvchi sanaladi, shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega bo'lgan ta'lim markazida uning shaxsi, uning ongi, uning ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, Uyg'onish davri SHarq mutafakkirlari ta'lim jarayoni, o'qitish, ta'lim berishda o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, ibn Sino ta'lim jarayoni haqida gapirar ekan, ta'limda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib quymaslik;
- ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish[8].

Beruniy esa o'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;

---

7 Цитата по книге: Малькова Е. А. Современная школа США – 86.
8 Анталогия педагогической мысли. М., «Педагогика», с. 84 – 86

- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish kerakligini uqtiradi.[9]

Ushbu fikrlardan ma'lum bo'ladi-ki, ta'lim jarayoni o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyagini o'z ichiga oladi. SHu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik.

Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatni asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda ahloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarini egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishda o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga qo'lga kiriitilgan bilimlarni o'rgatadi, o'quv faoliyatida ularni malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradi. SHu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va ahloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishga katta imkoniyatlar ochib beradi. YAna-da, aniq qilib aytgan-da, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi, o'quvchilarga qiyinchiliklarni engib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi.

O'z navbatida o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, malaka hamda ko'nikmalarni egallashga, o'zini jamiyatda foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'pqirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda, o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

---

[9] Анталогия педагогической мысли. М., «Педагогика», с. 59 – 63

O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishda namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchining faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlabgina qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun xarakterlidir. SHu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois o'quvchi jalb etiladigan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; sub'ekt (o'quvchi) kuchi, faolligi, mustaqilligi turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy, reproduktiv, boshqalarida – izlanishli, uchinchilarida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri uning oxirgi natijasi – egallangan bilim, malaka, ko'nikmalari xarakteriga ta'sir etadi.

O'quvchining bilishi, xuddi etuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'quvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish, ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi. Insoniyatning umumlashtirilgan bilimlari tizimi ta'lim davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va ular ilmiy haqiqat tashuvchilariga aylanadilar.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub'ektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va ma'lum boyliklar yaratuvchi faoliyatning qayta yaratuvchi xarakteridir. O'quvchilarning ta'lim muassasi (maktab, akademik lisey, kasb-hunar kolleji)dagi bilish faoliyatining xususiyati shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan "mahsul"ga ega emas va o'quvchining o'zi uni hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, "men o'qidim o'rgandim! Adolatdan emas" degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Faoliyat maqsadlari, uning maqsadli farazlari ta'limning uzoq muddatli jarayonini belgilaydi, uning ijtimoiy yo'nalganligini ob'ektiv ifodalaydi va uning

pirovard natijalarini belgilab beradi. SHu bilan birga isbotlanganki sub'ektiv tarzda bu murakkab va o'quvchining tajribasidan uzoq bo'lgan maqsadlar hamma vaqt ham anglab etilmaydi va o'quvchining o'zi faoliyat sub'ekti sifatida maqsadlarni bevosita tashuvchi bo'lmaydi. O'qishning ijtimoiy yo'nalganligi o'quvchining faoliyati bilan belgilanadi, o'quvchi qanchalik yosh bo'lsa, bunday belgilanish darajasi yuqori bo'ladi.

Bu jarayonni bilish bosqichlaridan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki bo'g'inlarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan to'la va mukammal bilimga o'tishi lozim.

O'qitish jarayoni to'rtta asosiy bo'g'inlardan tashkil topgan:

1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotni idrok qilish;

2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;

3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;

4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash.

Bu bo'g'inlar o'quvchilarning ma'lum bir yo'nalishdagi bilish faoliyati bilan bog'langan bo'lib, u o'qituvchining boshqaruvchilik qobiliyatini taqozo etadi.

O'rganilayotgan ma'lumotni idrok etish. Bu bo'g'inning vazifasi – o'rganilayotgan ob'ekt haqida tasavvur hosil qilish. Tasavvurning hosil bo'lishi esa, bilish vazifasining to'g'ri qo'yilishini talab qiladi. YA'ni, o'quvchi: nimani bilishi, nima uchun bilishi, qay tariqa bilib olishi lozim. Bilish vazifalarini qo'yish bilan bir vaqtda o'quvchida bilishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj hosil qilinadi. Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolaning maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchining bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishning uzoq yo'liga ega bo'lishi mumkin: ayrim o'quv harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatining ustivor motivigacha. Hatto o'qishning etakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish

ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta'sir etadi. Bilishga qiziqishning ijtimoiy motivlar bilan o'zaro aloqasi jiddiy bo'lib, ular orasida o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqot alohida rol' o'ynaydi. Ijtimoiy motivlar keng, uzoqlashgan, istiqbolli, ularning lisoniy ifodasi boshlang'ich sinflardayoq paydo bo'ladi ("ma'lumotli bo'lishni istayman").

Ahloqiy motivlar – juda muhim guruh. Ularda shaxs shakllanishining jiddiy jihatlari – uning, avvalo, odamlarga, faoliyatga, o'zining jamiyatdagi va jamoadagi o'rniga nisbatan ahloqiy munosabatlari ifodasini topadi.

Muloqot motivlari – yana bir guruh. O'quvchilarni o'qishga real undaydi, umuman maktabga ijobiy munosabat zamirida yotadi.

O'quv motivlari – sof shaxsiy tuzilma, biroq ular predmetlar dunyosidan boshlanadi (A.N.Leont'ev), shunchaki hosil bo'lmaydi.

Bilish motivlari – tobora xarakterli guruh, zero u bilish – o'quv predmetiga bevosita munosabatni ifodalaydi. Bunda tobora ahamiyatlisi bilishga qiziqish va ehtiyojlar sanaladi. O'quvchiga "yangi narsani bilish", "o'zini bilimda ilgarilashini ko'rish", "ilmga sho'ng'ish" o'zi qiziqqan fanning nazariy asoslarini tushunish juda qiziq. Ta'limning bu motivlarining real ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin, aynan ular o'quvchining o'zini o'qish uchun "kashf etadi". Bilishga qiziqish o'quvchining faolligi, ta'limda mustaqilligi asosida yotadi, maktabga umuman muhabbatni shakllantiradi. Bilishga qiziqish rivojlanishning yanada yuqori bosqichida shaxsning barqaror qirrasi, sifati bo'lib, ko'pincha bilash faoliyatiga izchil intilish bilan xarakterlanadi. Bunda ayniqsa o'quv materiali mazmunidan kelib chiqadigan rag'batlash va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim mazmunining bilishga qiziqishni uyg'otuvchi rag'batlashlariga quyidagilar kiradi: o'quv materialining yangiligi, bilimlar mazmuniga tarixiy yondashuv, ularning zamonaviy fan yutuqlariga muvofiqligi hamda amaliy ahamiyati. Bu stimullarning har biri V – IX sinflarda turli fanlarda turlicha namoyon bo'lish darajasiga ega bo'lib, qiziqishga alohida ajratilgan holda emas, balki boshqalari bilan birgalikda ta'sir etadi, shu bois o'quvchilar ko'z oldida

o’zining barcha tomonlari ko’p qirraliligi bilan namoyon bo’lgan ta’lim mazmuni qiziqish uyg’otishning ahamiyatli omili sanaladi.

O’quv materiali yangiligining qiziqishga ta’siri hammaga ayon. O’quvchi uchun hali o’zi ko’rib yoki eshitib bilmagan har qanday narsa va hodisa yangi hisoblanadi. O’zi bilmagan yangi faktlar, hodisalar bilan tanishib, yangi axborot olib, o’quvchi tabiiyki hayratlanish, quvonish hissini to’yadi.

O’quv materialini o’rganishda tarixiy yondashuv bilan darslarda qiziqish paydo bo’ladi. CHunki har bir narsa va hodisalar o’zining taraqqiyot jarayonida ma’lum bir davrlarni bosib o’tgan. Biror bir narsa yoki hodisa haqida gapirilganda, uning qanday paydo bo’lganligini bilish kishida, shu jumladan o’quvchilarda qiziqish uyg’otadi. Bu esa ayniqsa, fanlar tarixidagi yangi, noma’lum faktlar, olimlarning hayot va ijod yo’li, ilmiy xarakterdagi ma’lumot hamma vaqt o’quvchilarning diqqatini o’ziga tortadi - ular o’quvchilarning ko’zlariga ilmiy izlanishlar darajasiga ko’tariladi, fan taraqqiyoti jarayonini yorqin aks ettiradi.

Bilimlarning amaliy roli tahlili, tadqiqotchilar ma’lumotlariga ko’ra, bilishga qiziqishning, ayniqsa, kichik o’spirinlarda rivojlanishi uchun ancha dolzarb sanaladi, zero bilish va tajriba etishmasligi bois kichik o’spirinlar o’quv materialining nazariy ahamiyatining to’laqonli baholay olmaydi. Olingan bilimlarni amalda qo’llash imkoniyati ular uchun juda katta rag’batlantiruvchi ahamiyatga ega. Ta’limning turli yillari va bosqichlarida stimul turlicha namoyon bo’ladi va uning o’quvchilarning individual qiziqishlariga ta’siri ham turlicha. Bilimlarning nazariy emas, balki amaliy xarakteriga moyil ayrim o’quvchilar ta’lim mazmunini ayni shunda ko’radilar: “Men fizikani yoqtirmayman, unda radiopriyomnikni tayyorlash haqida maslahatlar yo’q. Lekin menda texnikaga oid kitoblar ko’p...” – kichik o’spiranlarning ayrim fikrlari shu kabidir.

O’quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish bilan bog’liq rag’batlantirish. Odatda, ta’lim jarayonida o’qishga qiziqishga katta ahamiyat beriladi. O’quv materiali mazmunining ob’ektiv imkoniyatlari roli qanchalik katta bo’lmasin, baribir o’quvchining bevosita faolligi uning bilishga qiziqishini kuchliroq

rag'batlaydi.

Biz ham boshqa ko'pchilik olimlar, o'qituvchilar singari an'anaviy o'qitishning rolini kamsitish fikridan yiroqmiz. Biroq bir tomondan, fan, texnika, madaniyatning tezkor taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, axborotlarning taboro globallashib borishi, boshqa tomondan, bugungi o'sib kelayotgan avlodning har jihatdan erta rivojlanishi – akselerasiya o'quv jarayoniga shunday yondashishni talab etmoqdaki, bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning yangi materialni mustaqil o'zlashtirish istagi kabi imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratiladi.

Rag'batlashning bu turiga o'quvchilar mustaqil ishlarining xilma-xil shaklini, ularning bilish faoliyatining yangi usullarini egallash, ta'limda muammolilik, fan metodlariga jalb etishni o'z ichiga tadqiqotchilik elementlari, turli ijodiy va amaliy ishlarni kiritamiz. Mustaqil ishlarning xilma-xilligi va shakllari almashib turishi o'quvchilar faolligini rag'batlashi isbotlab berilgan. Biroq o'quv materiali mazmuni malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida mustaqil ishning qandaydir bitta shakli uzoq muddat qo'llanishini talab qilgani bois bu stimuldan hamma vaqt ham foydalanib bo'lmaydi. Ko'pincha, masala echish (fizika, kimyo, matematika) jarayonida o'quvchilar echish algoritmini o'zlashtiradilar. Echish usullarini o'rganish, shubhasiz, zarur. Biroq bu holda harakatlar takrorlanuvchanligi bilishga qiziqishni mustahkamlash yo'lida g'ov bo'lishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun esa harakat vaziyati, o'qituvchi bilish vazifasi va uni hal etish jarayoniga munosabati bilan yaratgan holat bilan bog'liq stimullar muhim.

O'quvchilarning bilish faolligini oshirishda darsda o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatlaridan kelib chiqadigan rag'batlash ham alohida ahamiyatga ega. Gnoseologik va ijtimoiy nuqtai nazardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ta'lim o'quvchilarning bilishga qiziqishiga bevosita ta'sir etadigan munosabatlar bilan bog'liq.

Mazkur masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar o'quvchilarning bilish faoliyati xissiy ko'rinishi uchun xos bo'lgan rag'batlar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar hamda o'quvchilar jamoasidagi xususiyatlar

bilan bog’liq ekanligini ta’kidlaydi. O’quvchilar faoliyatini o’qituvchi tomonidan intellektual tartibga solinishi bilishdan quvonish, muvaffaqiyatdan qoniqish uyg’otadi. O’qituvchi guyo o’quvchilar bilan teng asosda izlanish ishlarini olib boradi: ular bilan birga reja tuzadi, bilish vazifalarini hal etishning turli yo’llarini izlashga majbur etadi.

O’qituvchining pedagogik ishontira bilish qobiliyati bilishga qiziqish rivojiga kuchli turtki beradi. O’quvchiga, uning bilish imkoniyatlariga ishonish psixologiyada ham, maktab amaliyotida ham isbotlanganiday, nafaqat o’quvchining bilishga qiziqishi, balki uning ma’naviy rivojlanishi uchun ham rag’batdir.

O’qituvchi ishlarining o’quvchilar tomonidan qo’llab-quvvatlanishi, ularning o’qituvchi tomon harakati ham bilishga qiziqishga ta’sirini o’tkazadi, ta’lim va o’qish samaradorligiga ko’maklashadi. O’qituvchi ishonchi doimo o’quvchilarning o’sha tomon intilishini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardn xulosa qilish mumkin:

1. O’quv jarayoni yaxlit va hatto har bir dars o’quvchilarning bilishga, turli sinf va fanlarda namoyon bo’lish xarakteriga ko’ra rag’batlar turli xil bo’ladi.

2. Rag’batlarning bir xil tuzilishga egaligi, o’zaro bog’liqligi bilishga qiziqishni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat etadi, shaxsning bilish kuchlari, uning fikrlash, irodaviy, hissiy-bilish jarayonlari faollashini ta’minlaydi.

3. Har bir darsda bilishga qiziqish o’zining avj nuqtasi, o’zining ko’rsatkichiga ega, o’qituvchi buni ko’rishi, diqqat bilan tahlil qilishi muhim, zero bu umumiy ma’noda darsning  samaradorligi ko’rsatkichidir.

4. O’quvchilarning bilishga qiziqishlarini tobora istiqbolli yo’nalishi qiziqishning dars boshidan to oxirigacha izchil o’sib borishidir, bunda o’quvchilar ishga berilib qo’ng’iroqni eshitmaydi va darsdan o’quv jarayonida qilib ulgurmaganini davom ettirish istagi bilan ketadilar.

5. Darsda bilishga qiziqishning asta-sekin so’nib borishi uni rag’-batlamaydi, balki o’chiradi va  har safar qiziqtirishni boshidan boshlash lozim bo’ladi.

## 1.3. O‘quv-bilush faoliyatini psixologik boshqarish nazariyalari

O‘quvchining bilimni o‘zlashtirishi uning o‘quv-biluv faoliyati bilan uzviy bog‘liqligida endi hech kim shubha qilmaydi. Pedagogika tarixidan ma’lumki, eski maktablarda, shuningdek, Yevropada XIV-XV asrlargacha sxolastik ta’lim tizimi hukmron bo‘lib, bola o‘quv predmetining asosiy qoidalarini o‘qituvchidan eshitib o‘rganadi. Chunki, o‘quvchining so‘zi o‘quvchi uchun axborot olishning olishning yagona manbai bo‘lgan.

VIII asrdanoq Y.A. Komenskiy sxolastik ta’limning samarasi juda past ekanligini isbotlagan edi. Sxolastik ta’lim o‘rnini ko‘rgazmali o‘qitish usuli egalladi: “Yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal”. Lekin ko‘p o‘tmay ko‘rsatmali ta’lim berish usuli ham optimal (samarali) emasligi ma’lum bo‘ldi va bilim olishda o‘quvchi faoliyatini tashkil etish usuliga o‘tildi: “ish-harakat bajarilayotganini yuz marta ko‘rsatgan uni bir marta bajargan yaxshi” degan xulosaga kelindi.

Faoliyatli yondashuv ta’lim jarayonini tashkil etishning xilma-xil usullarini vujudga keltirdi. Bilim olish uchun motiv hosil qilish bilan birga, o‘quvchi o‘quv materialini o‘zlashtirishga imkon yaratadigan o‘quv-biluv harakatlarini ham bajarishi zarur, ya’ni o‘quvchining o‘zi faoliyat ko‘rsatib o‘qimog‘i kerak. Muallimning vazifasi – bilim olishning qulay texnologiyasi (usuli)ni tanlab, o‘quvchilarga uni bajarish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat.

Hozirgi zamonaviy pedagogika fanida ta’limni faoliyatni tashkil etishga doir bir qancha psixolog-pedagogik g‘oyalar mavjud. Ularni umumlashtirib, o‘quvchi o‘quv-biluv faoliyatining bir necha tiplarini ifodalash mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlash,boshqaruv jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatlari, o’qituvchi bilan o’quvchi o’zaro munosabatlarining milliy psixologik xususiyatlari, masalalari mahalliy muhit (bog’cha va umumta’lim maktablari)da umumpsixologik muammo sifatida o’rganilgan. Mamlakatimiz psixolog olimlari M.G.Davletshin (1974;1999); B.R.Qodirov (1992;1999); A.V.Tokareva (1991); E.G’.G’oziev (1994-2000); G’.B.SHoumarov (1998); R.Z.Gaynutdinov (1992); A.M.Jabborov (1999); R.I.Sunnatova (2001);

V.M.Karimova (2002); Z.T.Nishonova (2005); SH.R.Baratov (1998); G.Berdiev (2000); A.I.Rasulov (2001); A.A.Zokirov (2002); Z.P.Qlicheva (2005); Z.SH.SHerimbetova (2007); L.S.Beknazarova (2007); B.B.Nurullaeva (2008) va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ham o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatining ayrim qirralari yoritilgan.

M.G.Davletshin (1974;1999) ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatlarining pedagogik-psixologik mexanizmlaridan o'rinli foydalanish, zamonaviy pedagogda muallimning shaxsiga, kasbiga xos xislatlarning mujassam bo'lishini nazarda tutadi. O'qituvchining ezgu maqsad sari intilishi, mehnatsevarligi, kamtarligi, haqgo'yligi, xulk-atvori, yurish-turishi, o'zini qo'lga ola bilishi, tashqi qiyofasi, xullas o'qituvchining milliy va umuminsoniy axloq fazilatlariga mos keluvchi sifat hamda fazilatlari o'qituvchi bilan o'quvchi munosabatining samarasini ta'minlovchi muhim omillar ekanligini e'tirof etadi.

B.R.Qodirov (1992;1999) o'zining ko'p yillik ilmiy izlanishlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida nimalarga e'tibor berish, ishni qanday boshlash zarurligi haqida qimmatli ma'lumotlar va ilmiy tahlillarni keltirib o'tgan. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta'minlashda, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini oqilona yo'lga qo'yishda tashxis markazi xodimlari va psixologik xizmatning ahamiyatiga to'xtalib o'tadi. Olimning fikricha o'zaro munosabatlarda quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

-O'quvchining individual -psixologik imkoniyatlarini har tomonlama chuqur o'rganib, shunga xos o'quv - tarbiya jarayonlarini tashkil etish;

- Ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchi bilan ishlashi va muloqotga kirishishining mos va qulay usullarini tanlash va o'zgartirib borish;

- Ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'quvchining psixik rivojlanganlik darajalari va munosabatlariga qarab moslash hamda ularning barkamolligini ta'minlash uchun zarur shart - sharoitlarni yaratishda ta'lim sub'ektlariga yaqindan yordam berib borish.

E.G'.G'oziev (1994 -2000) ta'lim jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarni

o’z faoliyatini boshqarishga o’rgatish, bola shaxsining axloqiy va aqliy jihatlarini ongli ravishda idora qilish masalalariga to’xtalib o’tadi.Ta’lim jarayonida o’qituvchi o’quvchiga o’zining ta’sirini o’tkazish orqali unda mustaqillik va onglilik kabi shaxs sifatlarini tarkib toptirishi, bunda o’z-o’zini boshqarish “o’qituvchi-o’quvchi” modeli tarzida namoyon bo’lishi, o’qituvchi bu o’rinda “axborotchi”, o’quvchi esa “qabul qiluvchi” rolida maydonga chiqib, o’quvchi tashqi qabul qilishdan o’z faoliyatini mustaqil uyushtirishga o’sib o’tishini ko’rsatib bergan. O’quvchida boshqarish uquvi ma’lum tizimdagi usullarni egallagandan so’ng vujudga keladi.Demak, kichik yoshdagi o’quvchilarni o’z-o’zini boshqarishga o’rgatish muhim ahamiyatga ega bo’lib, bu shaxsning garmonik taraqqiy etishiga ijobiy ta’sir qiladi. Buning uchun boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’quv faoliyatini rejalashtirishga, mantiqiy fikr yuritishga iroda sifatlarini takomillashtirishga bilishga qiziqishni idora qilishga, kitob bilan ishlash uquvini tarkib toptirishga, jamoa qidiruv faoliyatiga rahbarlik qilishga,o’quvchilar o’rtasida o’zaro yordam faoliyatini uyushtirishga, mustaqil faoliyatni tashkil etishga ko’maklashishga harakat qilmog’i, shundagina ularda shaxsiy, axloqiy hamda aqliy faoliyatlarini ongli boshqarish malakasi vujudga kelishi mumkinligini alohida qayd etadi.

G’.B.Shoumarov ta’lim tizimidagi psixologik xizmat muammolariga oid tadqiqotlarida bir qator qimmatli g’oyalarni va amaliy ahamiyatga ega bo’lgan tavsiyalarni ilgari surib, ta’lim jarayonini o’quvchining individual-psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish, mavzuni samarali o’zlashtirishni ta’minlashda o’quvchi mustaqilligini amalga oshirish va uning mustaqil fikrlashi uchun zarur sharoitlarni yaratish, o’z navbatida o’qituvchida esa “o’qituvchi-o’quvchi” hamkorlik faoliyatini tashkil etish uchun zarur bilimlar, malaka va mahoratlar mavjud bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi.

A.M.Jabborovning (1999) ilmiy tadqiqot ishida ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va milliy-madaniy omillar atroflicha o’rganilib, ta’lim jarayonidagi o’qituvchi munosabatlarining psixologik jabhalari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur psixologik-pedagogik tadqiqotda o’zbek maktabi

o’qituvchisining milliy-psixologik qiyofasi va uni belgilovchi asosiy omillar: o’qituvchining atrofdagilarga xushmuomalaligi va hurmat bilan munosabatda bo’lishi; o’zini tuta bilishi va amaliyotchiligi; o’qituvchi ongining o’z millatiga xosligi; obru-e’tibori va ijtimoiy tipiga o’xshashligi va o’qituvchining ijtimoiy dadilligi keng yoritilgan.

G.Berdievning (2000) boshlang’ich sinflarning aqliy rivojlanishi sustlashgan o’quvchilarida shaxslararo munosabat rivojlanishi dinamikasining o’ziga xos xususiyatlarini o’rganishga bag’ishlangan ilmiy - tadqiqot ishida umumta’lim va yordamchi maktab o’quvchilarining
o’zaro munosabatlardagi o’rni, holati va munosabatlar dinamikasida yuz beradigan o’zgarishlar sifat va miqdor jihatdan tahlil etilgan.

A.I.Rasulov (2001) tomonidan o’qituvchi bilan o’quvchilarning o’zaro munosabatlari va hamkorligi “o’qituvchi-o’quvchi” ijtimoiy-psixologik rollaridan kelib chiqqan holda tahlil qilingan, ular o’rtasidagi “sub’ekt-ob’ekt” qabilidagi munosabat, uning mohiyatini oldindan belgilab berish imkoniyati va ta’limda sub’ektlar o’rtasidagi o’zaro munosabatda cheklanishning mavjudligi ko’rsatib o’tilgan. Shuningdek, o’qituvchilarning o’quvchilar bilan o’zaro munosabatlarida shaxslilik va individuallik xususiyatlari: nevrotizmning o’rtacha darajasi, kuchsiz depressivlik, vijdonlilikning yuqori darajasi, turgunlashuv, xulqdagi extiyotkorlik, konformlik, muloqotmandlikning yuqori bahoga egaligi, bevosita hissiy hamda intuitiv mulohaza yuritishga moyillik, nazokatlilikning o’rtacha ko’rsatkichi asoslab berilgan.

R.I.Sunnatovaning (2001) fikrlash faoliyatining individual-tipologik xususiyatlarini o’rganishga bag’ishlangan ilmiy-tadqiqot ishida bolaning o’ziga nisbatan emosional qadriyatli munosabati, kongurentlik, o’zini yoqtirish bilan tavsiflanuvchi o’z-o’zini baholashi, shaxsning intilishi, mustaqil rivojlanishiga ko’maklashadigan ijobiy o’z-o’zini baholash, shu bilan, o’zini yoqtirmaslik, ichki nokongruentlikning, o’ziga qarama-qarshilik bilan tavsiflanuvchi, o’z faolligini amalga oshirishda ichki to’siq bo’luvchi va mustaqil rivojlanishda deformasiyaga

olib keluvchi ekanligi, ya’ni shaxs rivojlanishining umumiy yunalishiga destruktiv ta’siri asoslab berilgan.

Z.N.Nishonova (2005) tomonidan o’tkazilgan izlanishlarda ta’lim jarayonida o’qituvchi-o’quvchi hamkorligining muhim psixologik omili mustaqil fikrlashni shakllantirishning mexanizmlari, bu murakkab jarayonning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun o’quvchilar bilan muloqotning turli shakllarini tashkil qilishga, ularning hamkorlik va individual bilish faoliyatlarining qulay tarzda birikuviga, uyg’unlashuviga bevosita bog’liq muammollar o’rganilgan. SHuningdek, ishlab chiqilgan treninglarda o’quv faoliyatining guruhli shakllari amalga oshirilib, bunday mashg’ulotlarning har bir o’quvchi uchun yuksak faollik va mustaqillikni ta’minlashi, bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar uchun ham qulay vaziyat yaratish, har bir sub’ekt o’zini-o’zi namoyon qilish ehtiyojini qondirish imkoniyati keng yoritib berilgan.

Z.P.Qlichevaning (2005) o’quv-tarbiya jarayonidagi muloqot boshlang’ich sinf o’quvchilari shaxsining rivojlanishiga qaratilgan ilmiy ishida o’quv-tarbiyaviy jarayonda boshlang’ich sinf o’quvchilarining muloqot sifatlarini shakllantirish dinamikasi o’rganilgan.SHaxslararo munosabatlar tizimida o’quvchilarning ijtimoiy mavqei shaxsning muloqotchanlik darajasiga bevosita bog’liqligi, kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda sinfdan sinfga o’sib borish tendensiyasiga ega bo’lgan omillarning zahira xususiyati mavjudligi hamda muloqotchanlik, emosional beqarorlik, ustunlik, o’ziga ishonchlilik, ziddiyatlilik omillaridan iborat ekanligi ifodalangan. Bu komponentlarning shaxs rivojlanishi bilan bog’liqlik darajasining ahamiyati keng yoritilgan.

Z.Sh.Sherimbetova (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida boshlang’ich sinflardagi o’zlashtirmovchi o’quvchilarning psixologik xususiyatlari, o’zlashtirmovchilikni keltirib chiqaruvchi omillar o’rganilgan. Boshlang’ich sinflarda bilish jarayonlarining rivojlanishi va o’zlashtirmovchilik orasidagi bog’liqlik aniqlangan.

L.S.Beknazarova (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida ta’lim jarayonida o’qituvchi bilan o’quvchi hamkorligi muammosiga doir nazariy

materiallar o'rganilgan, tahlil qilingan va tizimlashtirilgan. SHuningdek, pedagogika kollejlaridagi o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining hozirgi kundagi holati psixologik jihatdan kompleks o'rganilgan.Ular hamkorligiga ta'sir etuvchi muhim pedagogik-psixologik omillar aniqlanib, o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining kommunikativ distansiyasi, o'z-o'zini vaziyatlilik va shaxslilik baholash darajalari, muloqotga qobiliyatlilik ko'rsatkichlarining psixologik xususiyatlari tavsiflangan va shakllanish bosqichlari tadqiq etilgan.

Shunday qilib, mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan olib borilgan yukoridagi qator ilmiy tadqiqotlarda ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatlariga doir muammolarning ayrim qirralari yoritilgan. Biroq, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan o'quvchilari munosabatlarining psixologik xususiyatlari masalasi “o'qituvchi-o'quvchi” munosabat tizimida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida qariyb o'rganilmagan.

1. Agar ta'lim maqsadi birinchi darajadan yuqori bo‘lmasa (o‘quv materialini a1 darajasida o‘rganish lozim bo‘lsa), o‘qish reproduktiv tipda tashkil etiladi. Reproduktiv ta'limda o‘quvchining faoliyati muallimning so‘zlarini diqqat bilan tinglash yoki darslik bilan ishlashdan yoki o‘rganilayotgan obyektlar, hodisalarni kuzatishdan, ko‘rsatmaga binoan biror amaliy harakatni tajriba tariqasida bajarishdan iborat bo‘ladi. Shu ish-harakatni barcha o‘quv elementlarini bilib olish uchun bir necha marta bajarish uni uni yuqoriroq koeffitsent (K1) darajasida o‘zlashtirishga olib keladi. O‘zlashtirish koeffitsenti 0,7 (K1-0,7) bo‘lsa, ya'ni o‘quvchi test vazifasi (topshiriq)larini 70 %ini to‘g‘ri bajarsa, ta'lim tugallangan hisoblanadi, chunki o‘quvchining o‘quv elementlarini o‘zlashtirish bo‘yicha keyingi faoliyati K1 darajasidan yuqorilasha boradi.

2. Ta'lim maqsadi a-II (o‘zlashtirishning ikkinchi darajasida) bo‘lsa, o‘quvchining o‘quv-biluv faoliyati yuqoriroq shaklda bo‘lishi, ya'ni faoliyat ish-harakatning asosiy algoritmlarini ongli va mustahkam esda qoldirishni ta'minlashi lozim. Bu darajada o‘quvchi o‘quv materialini qayta ifodalay olishi,tanqidiy mushohada yuritishi, vazifani bajarish variantlaridan ratsional usulni tanlay bilishi kerak. Ta'limning bu tipida o‘quvchiga o‘quv materialidan konspekt, referat

tayyorlash, munozarada so‘zga chiqish, ma’ruza qilish, barcha o‘quv elementlariga oid masalalarni yechish, didaktik o‘yinlarda qatnashish tavsiya etiladi. 2-daraja testlarni bajarish koeffitsenti KII-0,7  bo‘lsa, 2-darajadagi ta’lim (o‘zlashtirish) tugallangan hisoblanadi.

3. O‘zlashtirishning 3-darajasi (a-III) ga erishish uchun o‘quvchining o‘quv-biluv faoliyati tanqidiy, evristik shaklda tashkil etiladi. Buning uchun o‘quvchi o‘quv materialini avval 1-va so‘ngra 2-darajada o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur. Bu darajada o‘quvchidan o‘quv-biluv faoliyatini izlanish (Evristik) harakatlari qilishini talab etadigan muammoli o‘qitish (ta’lim), ish o‘yinlari, biror ishni real mo‘ljallab (loyihalashtirib) bajarish kabi didaktik vazifalarni bajarishi o‘rinli bo‘ladi.

4. Nihoyat ta’lim maqsadi 4-darajasida o‘zlashtirishni ko‘zlaganda, masalan, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash kabilarda o‘quv jarayoni tadqiqot natijalari va metodikasini tahlil etish bo‘yicha munozaralar, muammoli vazifalarni qo‘ya bilish, individual va jamoa bo‘lib tadqiqot ishlarinibajarish kabi shakllarda tashkil etiladi. O‘quvchida ta’lim maqsadiga mos keladigan o‘qish motivlari mavjudligi va o‘quv-bilish faoliyatining shakllari to‘g‘ri tanlanganligining o‘zi bilim olishning mo‘ljallangan (loyihalashtirilgan) natijalarini egallashini kafolatlay olmaydi. Ta’lim jarayonini boshqarish usuli ham to‘g‘ri tanlangan taqdirdagina o‘quv jarayoni tugalllangan hisoblanadi. O‘quv jarayonini boshqarish zarurligi insonning tajriba (bilim) o‘zlashtirishining xususiyatidan kelib chiqadi. Gap shundaki, ko‘pgina o‘quvchilar o‘zlashtirishning 1-darajasida 0,5 (K1-0,5) koeffitsentda o‘zlashtirganlarida (chala-chulpa) o‘zlashtirishganda yo‘q “bilib oldim” deb hisoblaydilar- “aldanish” sodir bo‘ladi, ya’ni bunda o‘quvchining keyingi o‘quv-biluv faoliyati samarasiz bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quvchi mo‘ljallagan barcha ish-harakatlarni to‘liq bajarganini, o‘zlashtirish sifatini nazorat qilib borish, amallardagi xatolarni tuzatib borish zarur. O‘zlashtirish jarayonini boshqarishning eng oddiy usuli – o‘zlashtirish sifatini testlar yordamida vaqti-vaqti bilan nazorat qilib, tekshirib borishdir. Har bir mavzuni o‘rganayotganda nazorat vaqti va usuli (test, amaliy ish kabilar) oldindan belgilab qo‘yilishi, ya’ni o‘quv jarayonida

standartlashtirilishi (shu bilan birga o‘qituvchining ijodiy ishlash imkoniyati ham saqlanishi) lozim.

Shuni nazoratda tutish kerakkki, ta’lim jarayonining barchasi uchun ish-harakatlarni o‘zlashtirishning yagona, eng yaxshi usuli mavjud emas, chunki kishilarning aqliy qobiliyat va imkoniyatlari xilma-xildir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, kishi hatto ta’lim yomon tashkil etilgan sharoitlarda ham, zarur axborotlarni bilib, o‘zlashtirib olishi mumkin. Yomon tashkil etilgan ta’lim jarayoni degenda talabaning o‘quv-biluv faoliyatida, harakatlarida o‘zlashtirishning a1 darajasidan izchil ravishda aII, aIII, aIv ga qarab berishga amal qilmaslik nazarda tutiladi. Masalan, muallim yangi o‘quv materialini tushuntirayotganda (o‘zlashtirish hali K1-0,2-0,3 bo‘lgandayoq) murakkabroq (aII, hatto aIII darasidagi) vazifalarni bajarishni taklif etadi. Vazifani o‘quvchi bajara olmasa, bu, bolaning xavfsizligi, qobiliyati yuqligi tarzida baholanadi. Hech kim buning sababi, o‘qituvchi o‘quv jarayonini xato tashkil etganida ekanligini hayoliga keltirmaydi. Bu yerdagi farq o‘zlashtirish tezligi va sifatida bo‘ladi, lekin bilim o‘zlashtirish jarayoni davom etaveradi, uni hech kim to‘htatib qololmaydi. Shunga ko‘ra o‘zlashtirish algoritmini ifodalashga nisbatan bir qancha yondashuvlar vujudga kelgan.

Bilim o‘zlashtirishda o‘quvchi bajaridigan ish-harakatlar o‘zlashtirishning turli nazariyalariga binoan o‘qituvchi tushuntirishga yoki darslikdagi ko‘rsatmaga asoslanadi. Ko‘pincha o‘qituvchi qaysi nazariyaga asoslanayotganini o‘zi aniq aytolmaydi. Psixologiya, pedagogika fanlarida quyidagi ta’lim nazariyalari mavjud: oddiy muloqot nazariyasi, assosiativ nazariya, aqliy ish harakatlarni bajarish bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi kabilar. Ta’lim jarayonini samarali bo‘lishi o‘qitish shaklining zamonaviy nazariyalarga qay darajada asoslanishiga bog‘liq. Zamoniviy ta’lim nazariyalarini tahlil qilish va taqqoslash o‘quv faoliyatining umumiy formulasini aniqlash (belgilash)ga imkon beradi.

O‘quv faoliyatining umumiy formulasi o‘zlashtirishning turli nazariyalari va faraziyalariga binoan o‘qitiladigan va izchil mashqlar tizimidan iborat bo‘lgan, ya’ni bo‘lak-bo‘lak o‘quv-biluv harakatlarining izchilligi – shu nazariyaga bajarish

algoritmi hosil qiladi.

Bajarish algoritmining har bir qismi ta’lim jarayonida o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha izchil harakatlardir. Harakatning har bir “qadami” va shu “qadamning” mazmuni o‘zlashtirish jarayoni asoslanadigan nazariyaga bog‘liq. O‘zlashtirish nazariyasini tanlash usuli va sifat mezoni - o‘qituvchining pedagogik faoliyati uchun mo‘ljal bo‘lib, uning pedagogik texnologiyasini tavsiflaydi.

Psixologiya fanida mavjud o‘zlashtirish mo‘ljallaridan ikkitasini algoritmlar ko‘rinishida ifodalash mumkin.

1. Bosqichma-bosqich shakllanish nazariyasiga ko‘ra o‘zlashtirish jarayoni o‘quvchining o‘quv-bilish faoliyati sifatida qaraladi. Harakat shaklida amalga oshiriladi, ular har bir mashqda aqliy amallardan iborat bo‘lib, ma’lum izchillikda bajariladi. O‘zlashtirish paytida o‘quvchining dastlabki mo‘ljal harakati (MH) bajariladigan ishning qoida, usul (yo‘l)larini va shu qoidaga binoan vazifani bajarishni mo‘ljallab olishdan iborat.

2. Ta’lim nazariyasiga ko‘ra o‘quv vazifalarini bajarish uchun harakatlarni qanday tartibda, qaysi izchillikda bajarish tavsiya etiladi (maxsus kartochka yoki qo‘llanmada). Bu kartochkalar yordamida o‘quvchi harakatlarni bajarib, ijro etib (IH) o‘quv materialini o‘zlashtira boradi. Harakatlarni bu tariqa moddiylashtirish darslikda matn, karta, sxema tarzida berilishi ham mumkin.

Harakatlar bosqichma-bosqich shakllnishi nazariyasida o‘quvchining ijrochilik faoliyati (IH) bosqichma-bosqich, o‘quv-bilish harakati turli shakllarning izchil almashinuvi shaklida bo‘ladi: ya’ni tashqi, moddiy harakatlardan (M.H) boshlanib, ichki va tashqi nutq (NK) orqali, ichki, aqliy harakatlar (A.H) shaklida tashkil etiladi. Algoritmning bu bosqichini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$IH = MH + NO1 + AH$$

An’anaviy ta’limda talabaning o‘quv-bilish faoliyati tuzilishiga nisbatan bosqichma-bosqich shakllanish nazariyasida aqliy harakatlarni bajarish algoritmi aniq qurilganligi bilan ajralib turadi. Chunki mavjud ta’lim tizimida sinfda daslarda bola qo‘l bilan biror ishni bajarmay, hatto muallim bilan birga mulohaza, fikr ham qilmay qanchadan-qancha soatlarni befoyda, zerikib o‘tkazadi.

O‘quvchilik yillarida shakllangan aqliy va amaliy yalqovlikdan kishi kulgusida qutilishi oson kechmaydi, ba’zan bunday yomon odat keyingi o‘qish va mehnat qobiliyatida saqlanib ham qoladi.

2. Ta’lim nazariyalarining bir-biridan farqini ko‘z oldiga keltirish uchun keng tarqalgan amerika nazariyalaridan biri-bixeviorizm ta’limotini ko‘rib chiqaylik. Bu nazariya bilan tanishishning ahamiyati shundaki, birinchidan amerikalik pedagog va psixologlar o‘quv-bilish faoliyatining tuzilishiga katta e’tibor berayotganliklari, ikkinchidan, muallimlar tajribasida uchraydigan mexanik ravishda ko‘p marta takrorlab, yodlab olish bixeviorizmga juda o‘hshab ketishi ma’lum bo‘ladi.

Bixeviorizm ta’limotiga ko‘ra o‘zlashtirishning umumiy formulasi tubandagicha:

$$S \longrightarrow R \longrightarrow P$$

Bunda S-stimil, harakat qilishga undovchi sabab yoki harakat qilish lozim bo‘ladigan vaziyati: masalaning shartlari, savol, signal kabilar stipul bo‘lishi mumkin.

P-reaksiya, ya’ni stimulga javob harakati, savolga javob berish, masalani yechish, jismoniy harakatlar kabi reaksiya hisoblanadi.

P-to‘g‘riligini tasdiqlash, ma’qullash, ish harakat to‘g‘ri bajarilganini dalillish, stimulga javob to‘g‘riligini ma’qullash, bu oddiy yoki ma’naviy rag‘batlantirish yo‘li bilan bildiriladi. Masalan, hayvonlar buyurilgan harakatlarni to‘g‘ri bajarsa, shirinlik yoki boshqa biror ozuqa bilan rag‘batlantiriladi. Bixevioristlarning fikricha odamga ta’lim berayotganda og‘zaki ma’qullash, baho qo‘yish, bosh, qo‘l, ko‘z harakati bilan tasdiqlash kabilar shunga kiradi.

P-ma’qullash, rahbatlantirish bixevioristlar hayvonlar ustida tajribalar o‘tkazib ishlab chiqqan o‘zlashtirish formulasida eng muhim hisobalanadi, hayvonlarni o‘rgatishda u juda qo‘l keladi. Insonga nisbatan bu xulosani absalyutlashtirishga ayrim psixologlar shubha bilan qaraydilar. Shunga qaramay bixevioristlarning ta’lim jarayonida har bir amal bajarilishini nazorat qilib va ta’lim etaplarida yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatib borish zarurligi haqidagi xulosalari ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhimdir. Bu xulosani ular ta’lim prinsipi darajasigacha

ko‘tardilar. Shu qoida asosida ular dasturlashtirilgan ta’lim metodikasini ishlab chiqdilar. Unga ko‘ra har bir o‘quv matnini qoidalarga binoan tuzishni tuzishni taklif etadilar.

S $\longrightarrow$ R birikmasida esda qoldirish uchun o‘quv o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga ajratish;

- o‘quv elementlarini faoliyatdagi har xil ko‘rinishlarga qarab chiqish, ya’ni shu o‘quv elementdagi barcha birikmalarini aniqlash;

-“nazorat-tuzatish” amali yordamida javob harakati to‘g‘riligini darhol ma’qullash, rag‘atlantirish;

-har xil mashqlarlarni ko‘p bajarish, takrorlash yo‘li bilan S $\longrightarrow$ R birikmasini o‘zlashtirishning kamida 0,95 koeffitsenti darajasida egallash.

**O‘quv mashg‘ulotini loyihalashtirish**

Pedagogik texnologiya usulining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ta’limning rejalashtirilgan maqsadiga erishishni kafolatlaydigan o‘quv-bilim (o‘zlashtirish) jarayonini loyihalashtiriladi.

Maqsadni ko‘zlash, joriy natijalarni tekshirib borish, o‘quv materialini ayrim bo‘laklarga ajratish – o‘quv jarayonini tashkil etishning bu belgilari qayta ishlab chiqiladigan ta’lim sekliga xos xususiyatlardir.

Boshqacha aytganda, takrorlanadigan ta’lim shaklining asosiy qismlari quyidagilar:

-ta’lim maqsadlarini umumiy belgilash;

-umumiy maqsadni oydinlashtirish;

-o‘quv maqsadlariga aylantirish;

-o‘quv amallari majmui;

-ta’lim natijasini baholash.

O‘quv jarayoni bunday takrorlanadigan shaklga ega bo‘lgani uchun modul xarakterini kasb etadi, alohida blok (qism)larga ajratiladi, ular turli mazmunga, lekin umumiy tuzilishga ega bo‘ladi.

## II. BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

### 2.1. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida bilish faollligini psixologik xususiyatlari

Bilish jarayoni kabi ta’lim jarayonida ham o‘quvchi bilmaslikdan bilishga, noto‘g‘ri va noaniq bilishdan tobora to‘liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo‘lgan o‘lni bosib o‘tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham abstrakt tafakkur ham, amalga sinab ko‘rish ham bo‘ladi. Muayyan fan va hodisalar obyektiv dunyoni bilish jarayonidan o‘rganiladi va ularning tashqi, ichki mohiyatini o‘zlashtirish jarayonida omillar aniqlanadi. Mushohada, tasavvur va abstrakt tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriyalar yaratiladi.

Bilish ikki pallaga – nazariya va amaliyotga bo‘linadi. Nazariya yangi bilimni yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarga ifodalanadi; aksioma, teorema, qonun, formula, grafik raqam va boshqa nazariyada g‘oya shakllanadi. Amaliyot bilimlarning haqiqiyligini ko‘rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba o‘zgartirish, yaratish bular amaliyot shakllariga kiradi.

Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, oyni kuzatish jarayonini olaylik. Jonli mushohada va abstrakt tafakkur yordamida biz oyga apparatlarni yuboramiz, ilmiy apparatlar yordamida olingan materiallarni labaratoriyalarda tekshirish amaliyotga kiradi. Ilmiy bilishning vazifasi hodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonunlarini ochishdagina emas, balki biron-bir qonunning qay tariqa namoyon bo‘lish sabablarini ham ko‘rsatib berishdan iborat. Ilmiy omil ilmiy bilishning yelementi bo‘lib kuzatish, tajriba asosida qo‘lga kiritiladi. Amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo‘lmaydi. Shuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadi omillar asosida yotgan umumiy bog‘lanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning mohiyatini bilishdadir. O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari bilishda omillarni o‘rganishga katta e’tibor berganlar. U hatto muallim va shogird-o’quvchi o’rtasidagi munosabatning nimaga asoslanishi va qanday bo’lishi lozimligi haqida ham fikr yuritadi va etuk inson tarbiyalab etishtirishning eng

natijali yo'lini qidiradi. Insonni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalash,unda ijobiy xislatlarni shakllantirish shu yuqorida ko'rsatilgan yo'llar yordamida salbiy xislatlarning ta'siriga qarshi kurash natijasida amalga oshiriladi. CHunki, tashqi muhit ta'sirida inson ma'naviy etuklikka tomon ham borishi mumkin, tushkunlikka ham uchrashi, jamoa talablaridan uzoq turgan salbiy shaxs ham bo'lib etishishi mumkin.

Forobiyning ta'kidlashicha, ta'lim-tarbiya ishiga kirishishi, uni boshlashdan avval odamlarning shaxsiy xislatlarini bilish va nazarda tutish lozimdir.Uning fikricha, xohish, iroda, qobiliyat, yaxshilik va yomonlik shunday xislatlar qatoriga kiradi. SHuning uchun inson ruhiga xos bo'lgan xohish, iroda kabi xislatlarni, insonning nimaga qobiliyati borligini aniqlamay turib, uni tarbiyalashga kirishish kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli ham Forobiy bu xislatlarni ta'riflashga, ularni xarakterlab berishga harakat qiladi. Forobiyning e'tirof etishicha, har bir insonning tug'ma tabiatida va unga lozim bo'lgan har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko'pchilik bilan munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish xususiyati bor. Jami odamzodning ahvoli shunday bo'lib, odamlar har qanday kamolotga erishuvda boshqalarning ko'maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majbur.

Abu Rayhon Beruniy o'z ilmiy-falsafiy ta'limotlarida tarbiya masalasiga alohida e'tibor berib, tarbiyada atrof-muhit va jamoaning ta'siri kuchliligini, bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini to'g'ri tashkil qilishning muhimligini e'tirof etadi. U ta'limning eng zarur tarkibiy qismlari deb quyidagilarni ifodalagan: 1) aqliy tarbiya; 2) axloqiy tarbiya; 3) estetik tarbiya; 4) jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi; 5) do'stlik tarbiyasi va baynalminal tarbiya.

Beruniyning fikricha, yoshlarni o'qitish uchun o'qituvchi tanlash birinchi va asosiy ish deb hisoblanib, bolalarni yoshligidanoq, aniqrog'i 5-6 yoshdan o'qitish lozim. Buning uchun o'qituvchining xushmuomala, rostgo'y, o'z fanini yaxshi biladigan, pokiza, toza va ozoda, yurish va turishda namuna bo'lishini talab etib, "agar tarbiyachi o'rnak bo'lmasa, aytgan gapiga o'zi rioya qilmasa, uning bergan tarbiyasi samarasizdir", deb uqtiradi.

Xullas, alloma o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o'quv-tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy imkoniyat darajalarini hisobga olgan holda amalga oshirish me'yorlari haqida o'z ilmiy xulosalarini bayon qiladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) arab qomusiy asari "Tib qonunlari"da insonning tarbiyasi, bu tarbiyaning turli shakllari, vazifalari va maqsadlarini yoritib, inson yosh jihatidan o'sib borishi bilan unga ta'lim-tarbiya berish vazifasi ham o'zgarib borishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yosh bolalarni tug'ilgandan boshlab tarbiyalash uchun avvalo axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash lozimligini, uning sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerakligini uqtiradi. Ibn Sino bolalarni bitta-bittadan o'qitishdan ko'ra jamoada ta'lim-tarbiya berish, o'qituvchi bilan o'quvchining munosabatini o'rnatishni taklif etadi.Uning fikricha, jamoada o'qitilganda ularning ilmga intiluvchanligi kuchayadi, tengdoshlaridan orqada qolishga g'ururi yo'l qo'ymaydi. O'quvchilar o'rtasida fikr almashish, do'stlik munosabatlari tiklanib, o'z huquq va vazifalari haqida mulohaza yuritish qoidalarini shakllantirishga harakat kuchayadi.Undan tashqari jamoa bolaning nutqi o'sishida, fikrining charxlanishida, xotirasining mustahkamlanishida muhim o'rin kasb etadi. Ana shunday qoidalarga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonigina yoshlarning aqliy va axloqiy kamolotini ta'minlaydi.

Yusuf Xos Hojibning (1020) "Qutadg'u bilig", ("Baxt-saodatga erishtiruvchi bilim" 1069 y. yozilgan) asari turkiy xalqlardagi ijtimoiy va oila tarbiyasi, maktablardagi fan tarmoqlari, o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi manbadir.

Muallifning fikricha, farzandlarning tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart, chunki, ularning noo'rin xatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi zarurligi ta'kidlanadi.

Jaloliddin Davoniy (1427-1502)ning “Axloqi Jaloliy” risolasida ta’lim-tarbiya, qolaversa axloqning o’zgaruvchan va nisbiyligi to’g’risida fikr yuritiladi. Bolalarning xulq-odob va yaxshi fazilatlarni egallashida tarbiya muhim ahamiyatga molikligini ta’kidlaydi. U kishilardagi shaxsiy xislatlarning ayrimlari tug’ma bo’lsa, boshqa birlarini hayot davomida hosil qiladi, degan fikrni bayon etgan. SHuning uchun xulqni egallashda har bir shaxsning o’ziga xos tomonlarini hisobga olish lozim. Bundan tashqari Davoniy axloqning vaqt o’tishi bilan o’zgarib, rivojlanib va yana takomillashib borishini eslatib o’tadi. Uning ta’kidlashicha, “bola qalbi toza taxtaga o’xshash, unga har qanday tasvirni osonlikcha chizish mumkin ”. U bolada xulq-odobning shakllanishida, dunyoqarashning tarkib topishida oila va maktabning roli beqiyos ekanligini ta’riflaydi. Jaloliddin Davoniy bolalarning xulq odobiga salbiy ta’sir qiluvchi qo’pol va badjahl muallimlarning xatti-harakatini qoralaydi. Uning fikricha, muallim aqlli, bola tarbiyasidan xabardor, yaxshi xislatli bo’lishi lozim. Alloma o’quvchi bilan muallim o’rtasidagi munosabatga to’xtalib, shunday deydi: “Agar ota-uning jismini jismoniy jihatdan tarbiyalashga sababchi bo’lsa, muallim uning ma’naviy tarbiyasi kamolotga etishuviga sababchidir”. Agar kishining ruhi o’z badaniga qanchalik yaqin bo’lsa, muallim ham tarbiya sohasida o’quvchiga shunchalik yaqin turadi. Davoniyning fikricha, muallim bola qaysi kasbga qiziqsa, shu kasbni egallashiga yordam berishi, uni har tomonlama qo’llab-quvvatlashi lozim.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) “Mahbub-ul qulub” asarida o’qituvchi bilan o’quvchilar o’rtasida bo’ladigan o’zaro munosabat etikasiga alohida e’tibor qaratdi. O’qituvchining qo’polligi, qattiq qo’lligi o’quvchilar bilan bo’lgan munosabatlaridagi hatti-harakatlarida albatta ifodalanishi, rahmsiz, ko’ngli tosh, farosatsizligi va ta’magirligini esa uning yuz-ko’z ifodalaridan, nutq ifodasidan, xatti-harakatlaridan osongina uqib olish mumkinligini, buning hammasi esa, o’qituvchining aqli kamlikka giriftor bo’lganligini ko’rsatib, endi yoshlarni tarbiyalash emas, ularning taqdirida bir qator jumboqlar, kamchiliklar, buzilishlar bo’lishiga ayni sababchi bo’lishini ko’rsatadi. A.Navoiyning “Ular

qiynash yo’li bilan bolalar ko’nglini o’zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do’q-po’pisa bilan tartibga solmoqchi bo’ladilar. Ulardagi ko’rinib turgan qo’pollik yosh bolalardagi kelishmagan xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir”- degan ibratomuz so’zlari yuqoridagi fikrimizni tasdiq etadi.

Shu bilan birga, A. Navoiy o’qituvchining bir qancha ijobiy sifatlarini – qat’iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehribonligi, xatto tashqi qiyofasi, saranjom-sarishtaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishi bilan hammaga namuna bo’lishini, har bir o’quvchiga undagi o’ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda yondashish lozimligini ko’rsatib o’tadi hamda tarbiya ishi juda mashaqqatli, murakkab ish ekanligini alohida e’tirof etadi. “Lekin insof bilan aytganda, har qanday irodali odamni ham birgina bola tarbiyasi charchatadi. Maktab domlasi esa, bir to’da bolaga ilm-adab o’rgatadi... Lekin shunisi ham borki, bolalar orasida fahmi, idroki ozlari bo’ladi. SHu jihatdan olganda, bolalarda uning haqi ko’p”.Bu fikrlardan tarbiyachining ishi naqadar mashaqqatli ekanligini bilib olish mumkin.

Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”(1505) risolasi axloq va ta’lim-tarbiya masalalariga bag’ishlanib, unda o’qituvchi bilan o’quvchilar o’rtasidagi o’zaro munosabat odobining pedagogik-psixologik xususiyatlari o’z ifodasini topgan.

Mutafakkirning fikricha, bola axloqining shakllanishida, ayniqsa, tashqi muhit va tevarak-atrofdagi odamlarning ta’siri kuchli bo’ladi. Tashqi muhitning ta’sirida bola faqat voqelikni idrok etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki yaxshi yoki yomon xulqni ham egallaydi. Shuning uchun ham Koshifiy bola tarbiyasida ehtiyot bo’lishni uqtiradi. Bola dunyoqarashining shakllanishida maktab va muallimning roli cheksizligi, bolani bitta muallim emas, balki yoshiga qarab bir necha muallim tarbiyalashi lozimligini ta’kidlaydi. Birinchi muallim unga yurish-turish, odob, hayo, rostgo’ylik, kamtarlik, sofdillikni o’rgatishi lozim. Ikkinchisi bolani ilm-fanga, uchinchisi mardlik, jasurlik va chavandozlikka o’rgatishi lozim va hokazo. Husayn Voiz Koshifiy o’qituvchi muloqot jarayonida bolalar bilan xushmuomala va adolatli bo’lishiga e’tibor beradi. Murabbiy bolaga nasihat va

ta’lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonimizda muloyim va xushfe’l bo’lish maqsadga muvofiqdir.

XIX-XX asrlarda yashab ijod etgan buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz Ahmad Donish (1827-1897),Furqat(1858-1909),Abdurauf Fitrat (1886-1938), Abdulla Avloniy (1878-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), CHo’lpon (1897-1938) va boshqalar ta’lim-tarbiya jarayonida o’qituvchi bilan o’quvchi munosabatlarini yo’lga qo’yishda millatning milliy xususiyatlari va o’ziga xosligini saqlagan holda jahon sivilizasiyasining eng yaxshi an’analarini o’rganishga da’vat etdilar.

Ahmad Donish o’qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e’tibor berib, uning yosh avlodni tarbiyalash maqsadida o’z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o’z ustida ko’p ishlashi zarurligini alohida e’tirof etadi.

Zokirjon Xolmuhammad o’g’li Furqatning fikricha, tarbiyaning asosiy usuli ishontirish bo’lib, bunga esa aytish, tushuntirish va hayotda bor misollarni ko’rsatish orqali erishish lozim. U bolalarga zo’r muhabbat va mehribonlik bilan munosabatda bo’lishni talab etib, o’quvchilarga zo’rlik, qo’rqitish yo’li bilan ta’sir etish yoki biror narsani qabul qildirish, ularni urish, haqorat qilish hamda ularga nisbatan zo’ravonlik qilishni qoralaydi. Maktabda bolalar o’zlarini erkin, quvnoq tutishlarini ma’qul deb topadi.

Abdurauf Fitrat “Rahbari najot” asarida bolalar dastlabki axloqiy tarbiyani eng avvalo oila, qolaversa, uni o’rab turgan atrofdagi kishilardan olishini ta’kidlaydi. Fitratning uqtirishicha, bolalar suvga o’xshaydilar, suv qaysi rangdagi idishda bo’lsa, o’sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo’lsalar, o’sha muhitning har qanday axloq va odatini qabul qiladilar.U axloqiy tarbiyada, avvalo, ota-ona va muallimlarning o’zlari go’zal axloqli bo’lishlari zarurligini aytadi. Madaniyatli millat bo’lishi uchun bolalarning axloq tarbiyasiga katta ahamiyat berish kerakligini qayd etadi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) “Tarbiya” sarlavhasi ostida tarbiya turlari haqida fikr yuritadi: 1) “Tarbiyaning zamoni”, 2) “Badan tarbiyasi”, 3) “Fikr tarbiyasi”, 4) “Axloq tarbiyasi”. Bolani tarbiyalashda bu 4 masala g’oyat muhim ahamiyat kasb qilishini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, buyuk ajdodlarimizning bolalarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash va ularda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishda o’qituvchi-o’quvchi munosabatlarining psixologik xususiyatlari to’g’risidagi ta’limotlaridan hozirgi o’quv-tarbiya jarayonida ham oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning ongimizda aks etishidir. Bunda har bir analizator, I.P.Pavlov ta’kidlab aytganidek, narsalarning ayrim sifatlarini idrok qiladi: biz sovuq, iliqlik, sho‘r, oq, qora, achchiq, chuchuk va hakozolarni ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m-maza bilish, teri, muskul-harakat va organik sezgi organlarining faoliyati orqali bilib olamiz. Sezgilar odam haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishga, masalan, olimning bilishi bilan o‘quvchining bilish faoliyati o‘rtasida umumiylik bo‘lsa ham lekin, ular bir-biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilib olib, ilgari fanga ma’lum bo‘lmagan yangi haqiqatlarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni aniqlaydilar va shu tariqa fanning ilgarilab ketishga imkon yaratilar. O‘quvchilar esa ta’lim jarayonida olamni bila borib, o‘zlari uchun ilgari noma’lum bo‘lgan, biron fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyotida tekshirib ko‘rilgan yangi bir narsani bilib oladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni olimlar tomonidan yaratilgan bu qonunni bilishga to‘g‘ri, yengillashtirilgan, vaqt jihatdan qisqa yo‘ldan olib keladi. O‘qitish natijalari bilim sifatida o‘quvchilarning rivojlanish darajasida o‘z aksini topadi. Ta’lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma’noni anglatadi. Ya’ni bu, o‘quvchilarda bilim va e’tiqodlarni shakllantirish, o‘quvchilarning muayyan darajada o‘qimishli, madaniyatli, tarbiyali, sin inson bo‘lishiga erishish, ularning qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat. Ta’lim-tarbiya insoniyat tajribasining ma’lum tomonlarini, ya’ni o‘quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega

bo‘lishlarini ta’minlaydigan faoliyatdir. Ta’lim jarayonining mazmunini bilim, ko‘nikma va malakalar tashkil etadi. Demak, o‘quvchilar o‘qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bunda bilimning o‘zi kifoya qilmaydi. Uni hayotga ko‘p unum beradigan qilib qo‘llay bilish lozim. Buning uchun esa o‘qituvchida ko‘nikma va malaka hosil qilish lozim. Ko‘nikma mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig‘indisidir. Iqtidor va ko‘nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi. Bilim asosida ko‘nikma, malaka hosil bo‘ladi. Bilim bahsda kerak bo‘lsa, ko‘nikma mehnatda, dunyoni o‘zlashtirishda zarur. Shu jihatdan o‘quv yurtlarida, maktablarda o‘quvchilar o‘rtasida baxslar, bellashuvlar, o‘tkir zehnlilar mushloirasi, quvnoqlar va zukkkolar, zakovat bellashuvini tashkil etish foydalidir. Ta’lim jarayonini o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, ikki tomonlama xarakterga egadir. O‘qituvchining faoliyati tufayli ta’lim puxta o‘ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. Bola maktabgacha tarbiya yoshidanoq o‘quv ishi bilan shug‘ullana boshlaydi. U sonlar, harflar bilan matnli o‘qish jarayoni bilan tanishadi, sodir bo‘layotgan tabiiy hodisalarning muhim xususiyatlarni ota-onasi va tarbiyachilar yordamida bilib oladi, hikoya va ertaklar tinglaydi hamda ularni boshqalarga aytib berishni o‘rganadi. Ammo maktabgacha tarbiya yoshdagi bolaning asosiy faoliyati hamon o‘yin bo‘lib qoladi, shuning uchun ham uning fikrlash faoliyatida his qilib bilish ko‘proq ahamiyatga egadir. Ta’limning boshlang‘ich davrida o‘quvchi analiz-sintezdan ko‘proq foydalanadi. Analiz narsa va hodisalarning tarkibiy qismlariga ajratishdir. Sintez jarayonida o‘quvchilar o‘rganilgan narsalar va hodisalarning ayrim qismlarini, elementlarini bir butun qilib birlashtiradilar. Sintez, analiz taqqoslash, induksiya kabi usullar orqali o‘quvchilar o‘zlarida tushuncha hosil qilish imkoniga ega bo‘lishadi. O‘qitish jarayoni ikki faoliyatini o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materiallarini bayon qilishdan, o‘quvchilarda fanga qiziqishni tarikb toptirishdan, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilishdan, ularning bilim ko‘nikmalarini tekshirish, o‘quv ishlariga moyilligini uyg‘otash, rag‘batlantirish, bilim darajalarini xolis baholashdan

iboratdir.O‘qituvchining faolityai ta’lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunik u o‘qitadi, ta’lim beradi. O‘quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, chunki u o‘qituvchi bergan bilimni o‘qib, tushunib oladi. O‘qitish jarayonining ikkinchi tomoni o‘quvchining faoliyati bo‘lib, u o‘quv fani materiallarini o‘zlashtirishdan iborat. O‘qitish bilishdan farqli o‘laroq muallim rahyuarligida amalga oshiriladi. Ta’limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar, bilan qurolantirishdan iboratdir. Ilmiy bilimlarni egallash – muayyan fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlari idrok qilish, ularni izohlay bilash, mustaqil ravishda umumlshtirish, xulosalar chiqarish demakdir. Bular asosida o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira kabi bilish qobiliyatlari o‘sib boradi, ularda e’tiqod tarbiyalanadi. Bunday o‘qish jarayonida insoniyat erishgan barcha bilimlarni o‘rganish kerak, degan xulosa aslo kelib chiqmaydi. Ta’lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari asosi o‘rganiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga yetaklaydi, xulosalar chiqarishga, hayotga ishlab chiqarishda qo‘llay bilishga o‘rgatadi. O‘qituvchi, o‘z fanini qanchalik sodda usulda bayon qilmasin , y chuqur ilmiy bo‘lishi lozim.

Muallim bilimlarni o‘rgatar ekan o‘sha jarayonda bolalarning imkoniyatlarini o‘rganadi, qiyinchiliklarini ko‘radi, ularni bartaraf etish choralarini izlaydi. Ijodiy ishlovchi o‘qituvchi, materialni o‘zida ham, uni o‘qitish usullarida ham yangi jihatlarni ochadi. Huddi ana shunday ish jarayonida pedagogning o‘zida xos usuli shakllanadi.

O‘qituvchi maktab o‘quvchilarini yangi bilimlarni faol idrok qilishga, uni hayotga qo‘llay olishga tayyorlaydi. Bu tasadiifiy xodisa bo‘lmay, o‘quv jarayonining mantig‘i shuni taqazo etadi. O‘quvchilarning o‘qituvchiga sabog‘ini o‘zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo‘llash bosqichlaridan iborat bo‘ladi. Bilimlarni o‘zlashtirish voqelikdagi narsa va hodisalarni sezish va idro etishdan boshlanadi. Bilimlarni o‘zlashtirishda bu bosqichning ahamiyati nihoyatda kattadir. Idrok borliqni odam ongida aks etishdir, biz daraxtni, odamni, hayvon va boshqalarni idrok qilamiz.

Idrok o‘quvchilarning bilimlari, amaliy tajribasi darajasiga qarab muayyan maqsadni ko‘zlovchi jarayon bo‘lmog‘i kerak. O‘qituvchi idroni yoki bevosita kuzatishni yo‘lda qo‘yayotganida kuzatish mnbalarini sinchiklab tanlaydi. O‘quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich bilimlarni tushunish va umumlashtirishdir. Tushunchalarning hosil bo‘lish jarayonida induksiya kabi fikrlash masalalari katta o‘rin tutadi. Induksiya xususiy xollardan umumiy qoidaga boradigan, deduksiya esa umumiydan xususiyga boradigan fikr yuritish yo‘lidir.

O‘quvchilarning bilish faoliyatidagi uchinchi bosqich bilimlarni mustahkamlash va qo‘llashdir.

Mustahkamlashning mohiyati yangi materialni idrok qilish vaqtida hosil bo‘lgan muvaqqat bog‘lanishlarni puxtalashdir. Mazkur jarayonda bo‘sh va beqaror bog‘lanishlar mustahkamlab boradi.

O‘quvchilar faolligini oshirish uchun materialni dastlabki mustahkalash vaqtida materialga oid savollar qo‘yish bilangina kifoyalanmaslik kerak. Buning uchun o‘quvchining kitob va darsliklar bilan mustaqil ishlashdan turli xil mashqlar, amaliy mashg‘ulotlarni bajarish, ko‘rsatmali qurollar, kompyuterlar ustida ishlashlardan ham foydalanish mumkin. Materialning keyingi mustakamlanishi uy vazifalarini bajarish jarayonida davom etadi. Materialning har xil keyingi darsda takrorlanib borishi, mavzu yoki bilimning oxirida umumlashtiruvchi takrorlanish o‘tkazilishi hamda o‘quv yilining oxirigacha takrorlash mustahkamlashning zaruriy elementidir.

Bilim ko‘nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri avval o‘zlashtirib olingan bilimlarni amalga qo‘llashdir. Amaliyot bilimlar to‘ldirib boriladi, ularni amalda qo‘llash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarni egallash uchun turtki beradi.

## 2.2. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida o‘quv faoliyatini boshqarishning samaradorligini oshirish omillari

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning barcha o‘qish faoliyati qat’iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirishi zarur. Bu esa, birinchidan, o‘quvchilarga o‘qish, yozish va hisoblash malakasini egallashlari, arifmetika, ona tili, tarix, geografiya, tabiatshunoslik fanlari o‘quvchilarning bilimini orttirishga katta yordam beradi.

Iikinchidan bolaning darajasi va bilish prosseslarining taraqqiyoti aqliy rivojalanish yuzaga keladi, aktiv, mustaqil ijodiy faoliyat uchun qobiliyat tarkib topadi. Va nihoyat, o‘qishga bo‘lgan yo‘nalish, o‘qishga nisbatan mashg‘ulotli munosabat, o‘qishning yuksak ijtimoiy omillari tarkib topishi kerak.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlarini va ularning o‘qish faoliyatida taraqqiy etishini xarakterlab beramiz. Boshlang‘ich sinflardagi o‘qish faoliyati dastavval psixik jarayonlarning rivojlanishi, ya’ni tevarak – atrofdagi olamni bevosita bilishni, sezgi va idrokning rivojlanishini stimullashtiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar idrokning o‘tkirligi va sofligi bilan farq qiladilar. O‘quvchilarning idroki o‘ziga xos “bilimga tomoshabin tariqasida berilganlik” bilan farq qiladi.

Bu oliy nerv faoliyatining yosh xususiyatlari va birinchi signal sistemasining nisbatan ustunligi bilan tushuntirish mumkin. Kichik maktab yoshdagi yoquvchi oldida har kuni qandaydir birorta yangilikni ochib beradigan tevarak-atrofdagi olamni jonli qiziqish bilan idrok qiladi. Biroq o‘quvchining bu idroki o‘quv yili boshlarida o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu xususiyatlari uning yosh jihatdan bo‘lgan kamchiligi haqida gapirishga imkon beradi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning idroki bolaning harakatlari, amaliy faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Predmetni idrok qilish uning bilan nimadir qilish, uni qo‘lga olib ushlab ko‘rish demakdir. Darhaqiqat asosan kichik maktab yoshidagi o‘quvchining ehtiyojlariga mos keladigan, bolaning hayotiga, faoliyatiga bevosita qo‘shiladigan o‘qituvchi tomonidan maxsus ko‘rsatiladigan narsa idrok qilinadi. Psixik rivojlanishning mazkur darajasidagi idrok hali o‘zining maxsus

bilish maqsadlariga ega bo‘lgan to‘la ravishdagi alohida maxsussfaoliyat bo‘la olmaydi.

Ta’lim prosessida idrok qayta ko‘riladi, u rivojlanishining yanada yuqoriroq darajasiga ko‘tariladi.

To‘g‘ri tashkil qilingan ta’lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchining idroki maqsadga muvofiq, boshqariladigan maxsus faoliyat xarakteriga aylanadi.

Idrok rivojlanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli juda kattadir. O‘qituvchi o‘quvchilarni har kuni birorta narsani shunchaki ko‘rishga emas. Balki sinchiklab qarashga, o‘qituvchining aytganlarini shunchaki eshitishga emas, balki yaxshilab tinglashga o‘rganadi. U o‘qituvchining uyoki bu obyektlarni idrok qilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatlarini alohida uyushtiradi, narsa va hodisalarning muhim belgi hamda xususiyatlarini namoyon qilishga o‘rgatada, diqqat-e’tiborni nimaga qaratish lozimligini ko‘rsatadi, idrok qilingan obyektlarni plani va sistemali tarzda analiz qilishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarga bilimga bo‘lgan qiziqishni hosil qilishda ularni aktiv ijodiy faoliyatga tortish katta ahamiyatga egadir. Bunga o‘quvchilarga o‘quv materiallaridan ularning kuchi yetadigan, qiziqarli topshiriqlarni berib bajartirish yo‘li bilan erishish mumkin.

Hissiy bilim birinchi signal sistemasini orqali tevarak-atrofdagi borliqdan signal oluvchi faoliyatdir. Lekin bunda asosiy rolni ikkinchi signllar sistemasi o‘ynaydi. Birinchi signal sistemasi orqali idrok qilingan narsa doimo narsalarning ma’lum bir gruppasiga taalluqli bo‘lib, umumlashtirishga ega bo‘lmaydi. Umumlashtirish esa ikkinchi signal sistemasining faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Bilishning bu formulasi sezgi organlari orqali tevark-atrofdagi narsa va hodisalar bilan bevosita aloqada bo‘lish natijasida paydo bo‘ladagan taassurotlar asosiy o‘ringa turishini ham ta’kidlab o‘tish zarur.

Binobarin, bilimlarni o‘zlashtirishda, yangi materiallarni idrok qilishda mumkin qadar ko‘proq sezgi organlari ishtirok etishi lozim.

Idrokdagi sezgi organlarining imkoniyati boricha ko‘p ishtirok etishi o‘quvchilarning ongli faoliyatining aktivligini oshiradi, o‘rganilayotgan materialni har tomonlama bilib olishni, uni ancha to‘la idrok qilishni va esda qoldirishni ta’minlaydi. O‘quvchi o‘qituvchining aytganlarini idrok qilish bilan birga, o‘quv materialini o‘zlashtirish ancha yengillashadi va o‘quvchilarning bilish qobiliyatlari o‘sadi. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishnihosil qilishga ularni aktiv ijodiy faoliyatiga tortish katta ahamiyatga egadir. Bunga o‘quvchilarga o‘quv materiallaridan ularning kuchi yetadigan, qiziqari topshiriqlarni berib bajarish yo‘li bilan erishish mumkin.

O‘rganilayotgan materialning mazmuni va ahamiyatini hayot bilan, o‘quvchilarning oldin o‘rgangan bilimlaridan foydalanish, o‘qishda va mehnatda o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatganlarni rag‘batlantirish – bularning hammasi o‘quvchilarning bilish qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilish qobiliyatini rivojlantirish uchun turli xil metodlardan foydalanish mumkin.

Tabiatshunoslik darslarida biron bo‘lim yoki bob o‘tilib tugatilgandan keyin o‘quvchilarni ekskursiyalarga olib chiqiladi. Ekskursiya bir necha kun oldin aytiladi. O‘quvchilar ekskursiyaga borish uchun tayyorlanadilar, kerakli narsalarni, idishlarni olib keladilar. O‘tilgan mavzular yuzasidan olgan bilimlari, ekskursiyaga olib chiqilganda yanada kengayadi va chuqurlashadi hamda mustahkamlanadi.

Bahor faslida bolalarni maktab bog‘iga ekskursiyaga olib chiqqanimizda, bolalar daraxtlarni kurtak chiqarishini, ularning gullashini, mevalar tugilishini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar. Qushlarning sayrashini, ob-havoni asta-sekin isishini kuzatadilar. Ekskursiyaga ko‘rgan bilganlarini hech qachon unutmaydilar. O‘quvchilarga tabiatni bilishga bo‘lgan mehr-muhabbati orta boradi. O‘quvchilarga berilayotgan darslar ko‘rgazmali o‘tilsa, o‘quvchilarni qobiliyatini o‘stirishga katta turtki bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda mehnat darsi o‘tiladi. Ba’zi o‘qituvchilarimiz mehnat darsiga e’bor bermaydi. O‘quvchilarni mehnat darslarida mehnat qilishga o‘rgatamiz, ayniqsa yosh bolalar o‘zining o‘yinlarida mehnat qila boradilar, o‘zlari

bajargan ishni ko‘rib sevinishadilar. O‘qituvchi biron narsani o‘quvchiga o‘rgatdimi, albatta u uyiga borib o‘sha o‘rgangan narsasini takrorlaydi.

O‘quvchilarga pomidaorga tokchalar yasashni o‘rgatmoqchi bo‘lsak, bu mavzuni 2 soatga mo‘ljallab o‘tsak, bu mavzuni 2 soatga mo‘ljallab o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchi soatga o‘quvchilarga mavzuni yaxshilab tushuntiriladi, ikkinchi soatiga esa bolalarni maktabning hovlisiga pomidor ekilgan joyga olib borib, ularga berilgan tushuntirishni ularni bajarayotgan ishlarida kuzatib turamiz. Kim yaxshi tokchalar yasasa uni rag‘batlantiramiz.

O‘quvchilarga bilimga qiziqishni rivojlantirshda ta’lim berishda o‘yin xarakteridagi didaktik materiallardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Shu sohada men o‘z tajribamdan bir qancha misollar keltirmoqchiman. “Alifbe”dagi har bir harfda tahlama kartochkalar tayyorlayman. Bitta kartochka orqali 33 ta so‘z o‘qiladi. Buning uchun ko‘p vaqt talab etilmaydi. Harf kassasida kesma harflardan so‘z tuzib o‘qishdan ko‘ra bu usul bilan 2,3 marta ko‘p va tez o‘qiladi. Bolalar sinfda tayyorlab olgan kartochkalarni uyga olib ketishlari ham mumkin. Uyga ular yordamida oila a’zolari o‘yin o‘tkazib, 6 yoshli bolaning bilim olishga o‘zlari bilmagan holda o‘qituvchi yordamchisiga aylanadilar.

Yuqori sinf o‘quvchilari ham ukalari qo‘lidagi kartochkani o‘ynagilari keladi, shu yo‘l bilan ular ukalariga beixtiyor yordam beradilar. Bundan tashqari ona tili darslarida ham didaktik o‘yinlardan foydalanaman. O‘quvchilarga tarqatish materiali tarqataman. Tarqatma materiallarda quyidagicha topshiriqlar bor:

Misol: Men bog‘dan olma terdim. Bu gapni quiydagicha yozaman. Men bog‘dan terdim. O‘quvchi olmaning rasmini ko‘rib o‘rniga olma so‘zini yozishi kerak.

O‘qituvchi maktab o‘quvchilarini yangi bilimlarni aktiv idrok qilishga, bilish vazifalari faol hal etishga tayyorlaydi. Bu tasodifiy hodisa bo‘lmay o‘quv jarayonining mantig‘i shunday qilishni talab etadi. Bilimlarni o‘zlashtirib olish harakterini va o‘quv jarayonining foydali natijalarini tushunib olish uchun o‘quv jarayonining mantig‘ini, uning mohiyatini yoritib berish nihoyatda zarur.

Ikkita tushuncha: o‘quv predmetining mantig‘i va o‘quv jarayonining mantig‘i bor.

O‘quv predmetining mantig‘ida fanning yetakchi g‘oyalari va uning o‘quv pragrammalarida berilgan mazmuni yoritilib beriladi. Lekin o‘quv predmetining mantig‘i biror sinfda beriladigan ta’lim jarayonining aniq yo‘lni belgilab bermaydi, o‘quvchilar bilimlari va aqliy kamolot darajasini hisobga olmaydi.

Ta’lim berishning aniq yo‘li o‘quv jarayonining mantig‘i bilan belgilanadi.

Huddi ana shu o‘quv jarayonining mantig‘i vositasida maktab o‘quvchilarining bilimlarini o‘zlashtirib olishlarida ham, bilish qobiliyatlarini o‘stirishda ham samarali natijalarga erishiladi. O‘quv jarayoni mantig‘ida bilish vazifalarining o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun qanday bayon qilish kerakligini, qaysi faktik materialni tanlab olish va qanday hajmda berish lozimligi, mustaqil ishlarning qaysi turlarini nazarda tutish hamda qanday kuzatishlar o‘tkazish va hakazolar qilish kerakligi kabi masalalar asosli dalillar bilan hal etib beriladi. Bularning hammasi o‘quv jarayonining maktab o‘quvchilarining bilimlarini o‘zlashtirib olishlari va ularning aqliy kamol topishlari nuqtai-nazaridan juda samarali bo‘lish uchun amalga oshirladi.

O‘quv jarayonining to‘g‘ri mantig‘i shunday bir mantig‘ki, unda o‘qituvchi o‘quv materiali qotib qolgan, o‘zgarmaydigan jarayon sifatida emas, balki ayrim faktlar, aniq tasavvurlar, tushunchalar, umumlashmalar bilan o‘qitiladi. Shunday qilib, didaktika masalalari bilan shug‘ullanadigan olimlar o‘quv jarayoni mantig‘ini va strukturasining harakatchanligini hisobga olib, unda maktab o‘quchilarining bilmaslikdan bilishga bo‘lgan harakati yuz beradigan asosiy bo‘limlari ajratib ko‘rsatiladi.

1. O‘quvchilarga bilim berish va amaliy vazifalar qo‘yish hamda ularning bu

vazifalarini tushunchalari, o‘qishuchun zarur vaziyat va kuzatuvchisabablar yaratish.

2. Muammoli vaziyat yaratish.

3. Ta’lim jarayonida bolalarning ilgarigi tajribasida foydalanish.

4. O‘quvchilarning har xil shakllaridagi va xilma-xil manbalardan olingan yangi

materialni idrok qilishlari.

5. Idrok qilingan materialni anglab olish tushunchalarini tarkib toptirish.

6. Maktab o‘quvchilarining olgan bilimlarini, hosil qilgan ko‘nikma va malakalarini

mustahkamlash hamda takomillashtirish.

7. Ta’lim natijalarini tahlil qilish, o‘quvchilarning bilimlarini, o‘zlashtirishlarini,

ko‘nikma va malakalar hosil qilishlarini tekshirish.

8. Bilim ko‘nikma va malakalarni amalda ma’qullash.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini ana shu bosqichlar yordamida o‘stirishimiz lozim. O‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini o‘stirishda didiatik o‘yinlarning roli katta. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham maktab islohotlarining asosiy yo‘nalishlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga berilayotgan bilimlarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq o‘yin tariqasida uyushtirilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi.

## 2.3. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida shakllantirish usullari

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan boshlanib to 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola u maktab o'quvchilariga qo'yiladigan xar xil talablar bilan tanishadi,fan asoslarini urganish uchun biologik va psixologik jixatdan tayyorlanadi.Uning psixikasi bilim olishga etadigan darajada rivojlanadi.SHu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshvnligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorkinligi, xotirasining kuchliligi,tafakkurning yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi.Maktab ta'limiga tayyorlanyotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barkaror buladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nixoyatda kata. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi raxbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini va o'z-o'zini boshqarishni egallaydi xamda insoniy an'analar asosida xarakat qilishni urganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maksadlariga erishish uchun mashk kildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini keraqli darajada rivojlanishini talab etgan xolda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi.Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofidagilar bilan psixologik jixatdan yangi munosabat tizimiga utadi. U o'zining xayoti tubdan o'zgarganini. unga yangi majburiyatlar nafaqat xar kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga buysunish xam yuklatilganligini xis eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqaetganligi, shuningdek. uni nazorat qilaetganligi, unga kilinaetgan yangi shakllaridagi muomala munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini tula xis etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos buladi. Kattalar bolalarni amaliy jixatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taksimlash borasida yaxshi o'qish, uynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shugullanishga urgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashishadigan, maslaxatlashishadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvafakiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining

shakllanishida tulik ijobiy asos buladi.Bola insoniy munosabatlar tizimida xam aloxida o’rin egallaetganini, ota-onasi, yakinlari, atrofdagilar unga yosh boladek emas. balki o’z vazifalari, majburiyatlari bor bulgan, o’z faoliyat natijasiga kura xurmatga cazovor bulishi mumkin bulgan aloxida shaxs deb munosabatda buladilar. Buning natijasida bolaning o’z-o’zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o’z urnini anglay boshlaganini kurish mumkin. Bu davrda bolaning «Men shuni xoxlayman» motividan «Men shuni bajarishim kerak» motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan xar bir o’quvchida psixik zo’riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida balki xatti-xarakatida xam  ya’ni ma’lum darajada qo’rquvni kuchayishi, irodaviy faollikningsusayishida namoyon buladi.

Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o’zaro munosabatda ma’lum bir natijalarga erishgan, o’zi xoxlayotgan narsalarni xamda, o’z oilasida o’z egallagan urnini aniq biladigan buladi.. SHuningdek u o’zini o’zi boshqarish malakasiga ega buladi, vaziyat va xolatga karab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar ularning xatti-xarakatlari va motivlari ularning o’zlariga beradigan baxolariga karab «Men yaxshi bolaman» emas, balki bu xatti xarakatlar o’zgalar ko’z ungida qanday namoyon bulishiga karab baxolanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab ta’limiga bog’chada tarbiyalanyotganida tayyorlanadi. Maktabga kelish arafasida bolaning so’z boyligi turli masalalar buyicha o’z fikrining bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar uch yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o’z nutqida 500-600 so’zni ishlatsa, olti yoshli bola 3000-7000 so’zni ishlatadi. Boshlangich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe’l, sifat, son va boglovchilardan iborat buladi. Bu yoshdagi bolalar o’z nutqlarida qaysi so’zlarni ishlatgan ma’kul-ku, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o’z jumlalarini murakkab grammatik tizimda to’za oladi.Bola  butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib nutqni o’zlashtirish ma’lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o’ziga xos yana bir xususiyati borki bola nutqda faqatgina o’z fikrini bayon etibgina kolmay, balki o’z suxbatdoshining diqqatini o’ziga jalb qilish uchun xam gapiradilar.

Bu davrda yozma nutq xam shakllanishini boshlaydi. Yozma nutq jumlalarni to'g'ri tuzish va so'zlarni xam to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bulsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffo'z etishga va yozishga urganishi zarur. Yozma nutq egallash asosida bolalarda turli tekstlar xaqida ma'lumot xam yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endi shakllana boshlagani bois bolada xali o'zi yozgan fikrlarni so'z va xarflarni nazorat etish malakasi xali juda kam. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash. fikrini bayon etish uchun material to'plash, asosiysini ajratib olish ma'lum ketma-ketlikda materialni bayon etish, reja tuzish malakasi yuzaga keltiradi. Jumlalarni to'g'ri tuzish, aynan mazmunga to'g'ri keladigan so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish xam, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z xolatlarini topa olish, to'g'rilay olish xam aqliy rivojlanishining kursatkichlaridan hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab kolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlish uchun muxim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lami kengayadi, bilimga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular xar bir narsaga berilib, uta sinchkovlik bilan karashlari sababli idrokning muxim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega buladilar.

7-10 yoshdagi o'quvchining idroki uning xatti-xarakati, uyini va mexnat faoliyati bilan bevosita bog'likdir. O'quvchi o'zining extiyoji, mayli, qiziqish va intilishi turmushi sharoitiga mos, shuningdek o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Maktabga birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasini yuqori

bulishi juda muxim. Maktab yoshiga kelib normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real xayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun xam surat va rasmlarda nimalar aks etganini real xayotga taqqoslagan xolda bilishga xarakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-muhitdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orkali olam go'zalligini turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildira oladi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida uning bilish faolligida kurish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi asosan atrof-olamni bilish, urganishiga qaratilgan buladi. Bola uynab turib olam sir-sinoatlari, sabab-xodisalari va bog'liklaridan xabardor bulishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bulsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar asosan xilma-xil buladi. Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qaerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha necha kilometr ekanligini bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning juda ko'p asosan « Nima uchun? «, « Qanday qilib? «, « Nima orqali? « savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar

Demak, kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir. 6-10 yoshli bola albatta mantiqiy ham fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib ta'lim olishga senzetiv bo'lgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni to'zilish tipiga xam boglik bulib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan to'ziladi. Chunki intellektual rivojlanish ijtimoii omillar bilan belgilanadi - individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam - ravishda o'qishga utishi uning atrof-xayotdagi narsa-xodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning tafakkuri mantikiy fikrlash, muloxaza yuritish, xukm va xulosa chikarish, taqqoslash taxlil qilishning turli usullarini kullashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha

yoshdagi bolalardan va usmirlardan farq qiladi. Ta’lim jarayonida tafakkur operastiyalariga, mustaqil fikrlashga o’rgatish kichik maktab yoshdagi o’quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O’quv faoliyat psixik funkstiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati,xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin odatdagi xolat va vaziyatlarda bolaga o’z psixik funkstiyalarini yuqori darajada tashkil etish xali birmuncha qiyinroq. 6,7-10,11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo’riqish asosidagina, bola o’zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy xarakati intilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Boshlangich sinf o’quvchilarida diqqatni irodaviy zur berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo’lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va bekarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko’proq rivojlangan buladi. Boshlangich sinf o’quv materiallarining yakkolligi, erkinligi, jozibadorligi, o’quvchida beixtiyor xis-tuygular uygotadi, irodaviy zo’riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1 -2 sinf o’quvchilari diqqatining o’ziga xos xususiyatlaridan biri uning etarlicha barkaror emasligidir. Shuning uchun xam ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat bilan ob’ektda uzoq tura olmaydi.

Ta’lim jarayoni kichik maktab yoshdagi o’quvchilarning ixtiyoriy, barkaror, mustaxkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga kulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mexnat qilish, misol-masalalar echish, mashklar bajarish, takrorlash irodaviy zur berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bulsa uni taksimlash, ongli ravishda boshqarish o’quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma’lum darajada o’z faoliyatini o’zi mustaqil rivojlantira oladi. U o’z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so’z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so’zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so’zsiz o’z diqqatlarini intellektual masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy

kuchni va yuqori motivastiyalarni tashkil etilishini talab qiladi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taasurotlari, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Obrazlar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib o'quvchilarda xayol paydo buladi.

**Xotiraning rivojlanishi**. O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini eslab kolishini talab etadi. O'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab kolishi zarurligi xakida kursatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab kolishi keraqligini takrorlaydi, uni tushunib olishga xarakat qiladi.Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira shubxasiz ustunlik qiladi.Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bulgan  qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

**Tasavvurning rivojlanishi**. Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishini suraydi. Bu xolat albatta biron-bir yordamchi kurollar- predmetlar, maketlar, sxemalar bulgan takdirdagina o'quvchi tasavvo'rini rivojlantirish mumkin. Aks xolda bu yoshdagi bolalar xali mustaqil tasavvur xarakatlari qilishga qiynaladilar.

Psixolog Piaje tadqiqotlarida **6**-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash suralgan. Va bolalar suv mikdorini bir-biri bilan teng bulgan idishlarda kurganlaridan sunggina o'z javoblari noto'g'riligni bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizishda, shuningdek ertak va hikoyalar tunglaiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil buladi. Ayrim o'quvchilar asosan real borlikni tasavvur etsalar boshqalari fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur  etadilar. SHunga boglik kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum obrazlar, s'yujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar asosida ularning qurquvni engish, dust topish, xursandchilik xislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida xam namoyon bulishi mumkin. Bola real xayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan xolatda kupincha xayolga beriladi. Masalan, mexribonlik uyida

tarbiyalanayotgan bola o’zining xamma xavas qiladigan oilasi, uyi bulishini, bu uyga ugrilar kelib kolsa, u kaxramonlik qilishini tasavvur qiladi. Tasavvur bolani vaqtinchalik bushashiga va bu bushashish vaqtida ota-onasiz yashashini davom ettirish uchun kuch tuplashga imkoniyat yaratadi. O’z bolasiga doimiy bakiradigan asabiy ona o’z farzandining tasavvurida mexribon farishta, o’z onasini katta, kurkinchli xavfdan kutkarayotgan kaxramonlik yoki bolaga doimiy ravishda ozor berganligi uchun xam ulib yotgan ona sifatida tasavvur etishi mumkin. O’z tasavvurida yaxshi yoki yomon xolatlarni  boshidan kechirgan bola o’zining kelgusi xatti-xarakatlar motivastiyasini tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan  tasavvurning  bolalar xayotida axamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-xayotni chuqurroq bila boshlaydi, o’z-o’zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chika oladi, ijodiy layokati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshidagi bola o’qituvchisi bilan mustaxkam emostional boglik buladi. Shu davrgacha bevosita kattalar raxbarligida u yoki bu axborotlarni o’zlashtirib kelgan bulsa, endi o’z xoxish irodasi bilan zarur ma’lumotlar tuplashga, o’z oldiga aniq maksad va vazifa qo’yishga xarakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayayn darajada rivojlanishini bildiradi. Oqilona tashkil kilingan ta’lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Shu yoshdagi bola boshqa davrlarga karaganda kuprok narsani o’zlashtiradi. Maktab ta’limi o’quvchining turmush tarzini ijtimoiy mavkeini sinf jamoasi va oila muxitidagi axvolni o’zgartiradi,uning vazifasi o’qishdan, bilim olish, kunikma va malakalarini egallash, o’zlashtirishdan iborat bulib koladi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muxim xususiyatlaridan biri unda o’ziga xos extiyojlarning mavjudligidir. Bu extiyojlar o’z moxiyati bilan muayyan bilim, ko’nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o’quvchilik istagini aks ettirishdan xam iboratdir. Shu extiyojlar asosida o’z portfeliga, shaxsiy o’quv qurollariga dars tayyorlash burchagiga, kitob qo’yish javoniga ega bulish, kattalardek xar kuni maktabga borish istagi yotadi.

Kichik maktab yoshidagi bola o’zining tub moxiyati va vazifasini tushunib etmaydi,balki xamma maktabga borishi kerak deb tushunadi.Ammo u kattalarning

kursatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi.Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona laxzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z axamiyatini yuqota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mexnat ekanligini anglaydi.Shunda bola aqliy mexnat kunikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik xissi vujudga keladi.O'qituvchi esa bunday xolning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi., qiziqarliligi xakida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak.Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi o'z aqliy mexnati natijasidan kanoatlanish xissi bilan o'zviy boglikdir. Bu xis o'qituvchining rag'batlantirish bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash moyili, istagi va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish o'z kuchiga ishonish xislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni o'quv faoliyatining asosiy komponetlari o'quv vaziyatlari,o'quv xarakatlari,nazorat etish va baxolash bilan(V.V.Davidov buyicha)tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli xarakatlar aqliy rivojlantirishga kulay bulgan sharoitda amalga oshirilishi juda muxim. Agar bola o'quv xarakatlarini noto'g'ri bajarsa bu uning o'quv xarakatlarini yo nazorat va baxolash bilan boglik xarakatlarni bilmasligi yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bulishi mumkin.Bolaning mustaqil ravishda bajarilgan xarakatlar natijalarini o'z xatti xarakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z o'zini nazorat etish xususiyatlarini ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni echish yullari bilan tanishadilar va ularni egallagan zaxoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlangich sinf ta'limi dasturlaridagi ko'pgina mavzu va bulimlarni o'rgatish bolalarni ma'lum bir sinfga taalluqli namunalarini o'zlashtirishga yo'naltirish orqali tashkil etilishi kerak deb ta'kidlanadi Tadqiqotlarning ko'rsatishicha. boshlangich sinf o'quvchilarining masalalarni yechishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha keraqli o'quv

xarakatlarini bajarishga o'rgatilinmaganligi natijasidir O'quv faoliyatida nazorat va o'z o'zini nazorat etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv xarakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muximdir Bolalar taffakuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib muloxaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning axamiyati katta ovoz chikarib muloxaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib. kishi o'z muloxazalari va xatti xarakatini taxlil etishi va anglashini rivojlantiradi Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktablar dasturida kursatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki shu davrdan boshlab o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari bu aqliy rivojlanganlik va o'quvchanlikning birmuncha orqada qolishidir N.S.Leytes muloxazalariga kura inson yoshi kattalashgan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha kutariladi,o'quvchanlik esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quvchanligi albatta usmir va uspirinlarga nisbatan yuqori,lekin usmir va uspirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlangich sinf ukuchilariga nisbatan yuqoridir. O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining xatti xarakatiga ta'sir kursatadi. O'qituvchining dars jarayonida xar bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. «Bola-katta» munosabati «bola-ota-ona» munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan kuprok ravishda normativ talablar kuyadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola xali o'zini tulik anglashi va o'zi xatti xarakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga .normativ talablar qo'yishi, ularning xatti xarakatlarini baxolash mumkin. O'z xatti xarakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlagich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni

qabul qiladilar va ularning qoidalariga to’la amal qilishga xarakat qiladilar. Bola uchun o’qituvchi uning psixologik xolatini belgilab beruvchy asosiy figura hisoblanib. bu xolat uning nafaqat sinfdagi balki umuman tengdoshlari bilan buladigan munosabatiga bu munosabat esa o’z-o’zidan oilasidagi munosabatlariga ta’sir kursatadi. Shuningdek. bu munosabatlar uning o’quv faoliyati muvaffaqiyatini xam belgilab beradi. O’qituvchining o’quvchilariga ta’sir kursatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud. Avtoritar uslub bu kattikkullik bulib. bunda o’qituvchi o’quvchilarini so’zsiz o’ziga buysinishlarini talab etadi. Lekin nima uchun qattiqqo’llik qilayotganini yoki o’quvchilariga nima uchun o’zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek o’quvchilarini o’z xatti xarakatlarini mustaqil boshqarishga xam urgatmaydi. O’qituvchi dars davomida o’quvchilaridan jim utirishini, savollarga doimo kul kutarib o’qituvchining ruxsati bilan javob berishni, o’qituvchining kursatmalarini so’zsiz bajarishini talab etadi.

Bunday pedagoglar o’quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o’quv rejasi asosida dars utadilar. Dars davomida xam baxs -munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan xolda asosan o’qituvchining fikri singdiriladi. O’quvchilari bilan muomala munosabatda xam ularning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, nerv sistemasining qo’zg’aluvchanlik darajasini xam e’tiborga olmaydilar. Bu uslub o’qituvchini sinfdan, o’quvchidan uzoqlashtiradi. Emostional sovuklik sinfda intizomni, o’quvchida yakkalanish, xavotirlik, ximoya kilinmaganlik xissini xam yuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o’zlashtirish kursatgichini berishi mumkin, lekin bu o’zlashtirish asosan faqat xotira evaziga bulib, mustaqil tafakkur, ijodkorlik, xozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan orkada kolishiga sabab bo’ladi, unda doimiy xavotirlik o’ziga nisbatan ishonchsizlini keltirib chikaradi.

Avtoritar uslubdagi o’qituvchining o’quvchilari o’qituvchi sinfda bulmagan vaqtlarda o’z o’zini boshqarish malakasi bulmaganligi uchun xam intizomga mutlako buysunmaydilar. Bu asosan tupolonda namoyon buladi. Bu uslub o’qituvchining mustaxkam irodasini kursatadi, lekin bu irodada o’quvchiga nisbatan muxabbat xamda o’quvchining «ustozim meni yaxshi ko’radi» degan fikri emas,

balki qo’rquv xissi mavjuddir. '

Demokratik uslub o’qituvchi bilan o’quvchi urtasida dustona munosabat urnatilishiga asos buladi. Bu borada darsdagi intizom bu majburiy emas, balki muvafaqqiyatga erishishi garovi sifatida tushuniladi. Bu uslub bolalarda ijobiy emostiyani, o’ziga ishonch, o’z muvafaqqiyati, yutuqlaridan kuvonishi, dustlari bilan faoliyatda xamkorlik xissini beradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. SHu bilan birga o’zining faoliyati natijalariga qiziqish uygotgan xolda o’zi uchun o’zi xarakat qilishi lozimligini anglatadi. O’zini o’zi boshqarishga, o’z xatti xarakatini o’zi nazorat qilishga urgatadi. Xar bir ishga ma’suliyat bilan yondoshish xissi o’qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

Liberal uslub kasbiy layokati yuk bulgan o’qituvchilarga xos bulgan uslubdir. Bunday o’qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi.Bunday darslarda xar bir bola o’z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o’zini tutadi. Bola o’z majburiyatlarini yaxshi xis kilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlari mutlaqo qarshi bo’lgan uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida mutlaqo qo’llab bo’lmaydi. Shunday qilib boshlangich sinf o’quvchilari bilan muomala munosabatdagi avtoretar uslub asosan ma’lum bir chegaralarga asoslangan xolda bola shaxsi rivojiga salbiy taosir ko’rsatadi. Demokratik uslub o’qituvchidan muomala munosabatda juda katta kasbiy maxoratni talab etgan xolda bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o’quvchini emostional zeriktirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga xam samarali toasir ko’rsatmaydi.O’qituvchining munosabat uslubi o’quvchining faolligiga bevosita taosir ko’rsatadi.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchi faolligini asosan uch xil ko’rinishi bor. Bu jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir

Jismoniy faollik - sog’lom organizmning xarakat qilishga bulgan turli mavjud tusiklarni engishga tabiiy extiyojidir. Bu yoshdagi bolalar nixoyatda serxarakat buladilar. Bu jismoniy xarakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan

karaetganligi, ularni urganishga xarkat qilaetgani bilan xam boglikdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro juda boglikdir. CHunki psixik sog'lom bola xarakatchan buladi, charchagan, sikilgan bola esa deyarli xech narsa bilan qiziqmaydi. Psixik faollik bu normal rivojlanaetgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir. Psixik faollik deganda bolani o'zini bilishga nisbatan extiyoji xam tushuniladi. Maktabga birinchi bor kelgan bolada bir kancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularga avvalo bir kancha maktab qoidalariga buysunish qiyin. Boshlangich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim utirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim utirishiga xarakat qilishadi,lekin kamxarakatli, passiv, kuvvati kam bulgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim utira oladi. O'quvchini qanday kilib maktab qoidalariga buysunishga urgatish mumkin? Bu borada o'qituvchining o'quvchilari bilan qiladigan muomala munosabat uslubining axamiyati juda katta. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muxim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchiga ishonch xissi bulib bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir kursatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql soxibi, ziyrak, sezgir, mexribon inson deb biladi. O'qituvchining obrusi oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, karindosh uruglarining nufo'zi keskin kamayadi. SHu sababli, bolalar o'qituvchining xar bir so'zini konun sifatida qabul qiladilar. Demak kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida etakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining axamiyati juda katta.

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi .balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun xam imkoniyat yaratadi. SHuni aloxida ta'kidlash lozimki etakchi bulgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar-uyin.mulokot va mexnat faoliyati xam o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir kursatiadi. Shuningdek bu faoliyatlar asosida muvafaqqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish extiyojini qondirishga, shuningdek tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat xam

yaratadi.Aynan ana shu o’rin yoki mavkega erishish uchun xam bola yaxshi o’qish uchun xarakat qilishi mumkin.Bu yoshdangi bolalar doimiy ravishda o’zlari erishgan muvaffaqqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqqiyati bilan solishtiradilar.Ular uchun doimo birinchi bulish nixoyatda muxim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik extiyoj xisoblanib bu motiv ularga kuchli emostional zo’riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog’cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o’smirlik davrida xam yaqqol ko’zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u xaqidaga fikr va baxolariga qarab o’zlariga o’zlari baxo beradilar.O’quvchining o’ziga o’zi beradigan baxosi asosan to’g’ridan to’g’ri o’qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog’liq.Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda o’z o’ziga beradigan baxolari turlicha –yuqori, adekvat, past bulishi mumkin.Bu yoshdagi bolalarda mavjud bulgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustaxkamlash davri deb hisoblash mumkin.Bu davrda muvaffaqqiyatga erishish motivlari tarkib topish bilan bir katorda mexnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi.Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda mexnatsevarlik asosan o’qish va mexnat faoliyatida rivojlanadi va mustaxkamlanadi. Mexnatsevarlik bolada o’z qilayotgan mexnati unga zavq bergan takdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xusuiyatining shakllanishi asosan kattalarga boglik. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochik xususiyatli bo’lsa unda asta sekinlik bilan buysinuvchanlik mustaqil bo’la olmaslik xususiyati mustaxkamlana boradi. Lekin bolani vaqtli mustaqillikga undash unda quloqsizlik, yopiqlikni shakllanishiga olib keladi va xayotiy tajribalarni asosan kimlargadir taqlid qilgan xolda o’zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni kuprok topshirish va unga ishonch bildirish nixoyatda muximdir. SHuningdek shunday bir ijtimoiy psixologik muxit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir ma’sul

vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb xis qilsin. Ana shu xis bolada mustaqil bulishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. 7-11 yoshli davrda bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolani o'z-o'zini anglashi xam jadal rivojlana boradi va mustaxkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada kuprok axamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga xarakat qiladilar.

Bolani o'zining tashki ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan baxosi xam o'z-o'zini anglashida axamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa qizlar o'zlarining yuz-tuzilishlariga aloxida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshdagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtrishiga, xamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulq-atvorining motivlashtirishi xam o'zgaradi. Bunda o'rtoqlar va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy xis-tuygular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshli davrida ko'zga tashlangan bolalarning xususiyatlari 4 yil davomida rivojlanadi va mustaxkamlanadi xamda o'smirlik davrining boshlariga kelib juda ko'p shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida xam ko'rinadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ko'pchilib boalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashanadi. Kichik maktab davrida xayot uchun nixoyatda axamiyatli bo'lgan muvafaqqiyatga erishish motivi mustaxkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun xam ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydaolanish mumkin.Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishishi mumkin. 3-4 sinflarga borib

bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining xam axamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz xolda sevimli mash'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mexnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi.

Pedagogikada qayta takrorlanadigan pedagogik jarayon siklini yaratish oson ish emas. Bunga o`quv tarbiya vazifalarining turli-tumanligi, ta'lim mazmuni va o`quv materiallarining har xilligi, talabalarning bilim o`zlashtirish qobiliyatlari xotira xususiyatlari bir xil emasligi kabi qator omillar sabab bo`ladi. Shunga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda olimlar pedagogik texnologiya usulini ishlab chiqdilar, ular yaratgan pedagogik texnologiya usuli qayta takrorlanadigan pedagogik sikl bo`lib, ta'lim olishda rejalashtirilgan natijalarni kafolatladi.

«YUNESKO» tashkiloti ma'qullagan ta'rif «Pedagogik texnologiya bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o`zaro ta'sirini inobatga olib o`qitish va bilim o`zlashtirishning barcha jarayonlarni aniqlash, yaratish va qo`llashning tizimli metodidir».

- Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo`lgan ma'lum pedagogik tizim loyihasidir: Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyada ko`zlangan maqsadga erishish uchun o`quv jarayonida qo`llaniladigan usullar, vositalar majmuidir;

- Pedagogik texnologiya oldindan belgilangan, loyihalashtirilgan o`quv tarbiya jarayonini izchil amalgam oshirishdir.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar pedagogik texnologiya usulining mazmunini anglash va aniqlash jarayoni poyoniga yetmaganligidan dalolat beradi. Bu masalaga oydinlik kiritish uchun avvalo pedagogik texnologiya tushunchasining muhim belgilarini aniqlash talab etiladi, jumladan:

- ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o`quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;

- tizimli yondashuv asosida talabaning o`qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;

- ta’limning maqsadi real aniq, diagnostic bo`lishi va o`quvchining bilim o`zlashtirish sifatini xolisona baholash;
- ta’lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi o`zaro bog`liq va o`zaro ta’sirda bo`lishi;
- ta’lim shakllarini optimallashrish;
- ta’lim jarayonida texnik vositalar va inson salomatligining o`zaro ta’sirini hisobga olish;
- ta’lim maqsadlarini ko`zlangan etalon asosida o`quvchining kuzatiladigan, o`lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlashtirish;
- ta’limda talabaning faolligiga tayanib o`qitish;
